

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**  
**MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI**  
**“MOLIYA” KAFEDRASI**

**MO‘MINOV AZIZBEK AKRAMJON O‘G‘LI**

**“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDIOTRLIK NAZORATINI**  
**RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI”**

**5230600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun**  
**yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»**

**«Moliya» kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ **i.f.n., dots. O.Komolov**

**« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 y.**

**Ilmiy rahbar: \_\_\_\_\_ dots B.Sattorov**

**TOSHKENT - 2017**

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK NAZORATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI .....</b>	<b>7</b>
1.1 O'zbekiston respublikasida auditorlik nazoratini tashkil etishning nazariy asoslari .....	7
1.2 Auditorlik nazoratini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari .....	12
1-bob bo'yicha xulosa.....	19
<b>2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI VA ICHKI AUDIT NAZORATINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI TAHLILI .....</b>	<b>21</b>
2.1 Respublikamizda tashqi audit nazoratini tashkil etish amaliyoti tahlili .....	21
2.2 Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ichki audit nazoratini tashkil etish amaliyoti tahlili .....	31
2- bob bo'yicha xulosalar.....	40
<b>3-BOB. O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK NAZORATI MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>	<b>41</b>
3.1 Auditorlik nazorati milliy standartlarini xalqaro audit standartlariga muvofiqlashtirish masalalari.....	41
3.2 Respublikamizda auditorlik nazoratini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari .....	49
3-bob bo'yicha xulosa.....	55
<b>XULOSA .....</b>	<b>58</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>60</b>



## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi** Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni yanada chuqurlashtirish natijasida biznesni muvafaqqiyatli rivojlantirishga yordam beradigan, xo'jlik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotlarining ishonchligi to'g'risida xulosa beradigan hamda hisobotni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, yo'l-yo'riq va boshqa turlardagi amaliy yordam ko'rsatadigan professional xizmatning yangi shakli – auditorlik faoliyatiga ehtiyoj kuchaymoqda. Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi farmoniga asosan, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan<sup>1</sup> makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, korxonalarni strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganidek: “...barchamizga yaxshi ayonki, biznesning muvafaqqiyati bozor iqtisodiyoti institutlari, xususan yuksak professional darajadagi mustaqil auditni, sug'urtaning zamonaviy shakllarini va moliyaviy xizmatlarning boshqa turlarini keng rivojlantirishga bevosita bog'liq”<sup>2</sup>. Ushbu auditorlik faoliyatni rivojlantirish esa ko'p jihatdan nazariy, huquqiy-meyoriy, amaliy tashkil etish jihatlarini ilmiy asoslangan holda takomillashtirishga bog'liq. Bu borada so'ngi yillarda auditorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan 2000 yil 26 mayda yangi tahrirdagi “Auditorlik faoliti to'g'risida” qonun qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish, auditorlik xulosalari soliq va boshqa

---

<sup>1</sup> “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. T.: “O'zbekiston”.2007y. 32 b.

nazorat organlari tomonidan hisobga olinishini ta'minlash maqsadida 2000 yil 22-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 365-sonli "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori hamda auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida" 4-aprel 2007 yil 615-qarori qabul qilindi boshqa qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Natijada, auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi uchun attestatsiya o'tkazish tartibi va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish tartiblari aniqlandi. Shuningdek 2000 yil 7 avgustda O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlar va auditorlik tashkilotlarini ixtiyoriy ravishda birlashtiruvchi mustaqil professional jamoat tashkiloti – O'zbekiston Auditorlar palatasi tashkil etildi. Shunga qaramasdan, mamlakatimizda auditorlik faoliyatining rivojlanishi ancha murakkab va qiyin, ko'plab jihatlari bo'yicha esa sust hamda ziddiyatli kechmoqda Uning nazariy masalalari, huquqiy-me'yoriy hamda tizimli tartibga solishning boshqa imkoniyatlari etarli darajada amaliyotda ishlatilmayapti. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish natijasida korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samarali tashkil etish uchun auditorlik tekshiruvdan o'tkazish, hamda o'zaro hisob-kitobni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, yo'l-yo'riq, huquqiy va boshqa turlardagi yordam ko'rsatadigan malakali xizmat ko'rsatadigan auditorlarga ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Bular o'z navbatida mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** bo'lib iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamizda auditorlik faoliyatining tashkil

etilishidagi muammolarni aniqlash va uning rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari** ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- auditorlik faoliyatini tashkil etishning maqsadi, iqtisodiyotni rivojlantirishda uning tutgan o'rni va ahamiyatini tadqiq etish;

- respublikamizda auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslarini aniqlashtirish va uning rivojlanish bosqichlarini belgilash;

- mamlakatimizda tashqi va ichki auditni tashkil etish masalalarini tahlil qilish va ularni tashkil etishdagi muammolarini bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- auditorlik faoliyati milliy standartlarini xalqaro audit standartlariga muvofiqlashtirish istiqbollari belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

- respublikamizda auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti** auditorlik faoliyatini amalga oshirish va uni rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

**Bitiruv malakaviy ishining obe'kti** O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlari, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi davlat organi va auditorlarning nodavlat professional birlashmalari hamda auditorlik faoliyatini tartibga soladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimi ishning ob'ekti hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati** Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida sohaga oid bo'lgan Qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar, xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlaridan hamda auditorlik faoliyati tizimi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:** Tuzilmaviy rejasiga ko'ra, ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish qismidan, uch bobdan, hulosasi va takliflar hamda hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

# **1-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AUDITORLIK NAZORATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA TASHKILIY- HUQUQIY ASOSLARI**

## **1.1. O'zbekiston respublikasida auditorlik nazoratini tashkil etishning nazariy asoslari**

Bozor iqtisodiyoti talablaridagi infratuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yilganligi xorijiy mamlakatlar sarmoyalarining kirib kelishiga zamin bo'lib ko'plab yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga va ish joylari tashkil etilishiga asos bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu kapitalni O'zbekiston iqtisodiyotiga joylashtirmoqchi bo'layotgan xorijiy investorlar oldida ishonchli sherik tanlash va ularning moliyaviy holatini aniq baholash kabi jihatlari muammoli bo'lib turibdi.

Ma'lumki, har qanday voqea, hodisa, buyum qaysi zamonda va makonda paydo bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum zaruriyat tufayli yuzaga keladi. Auditga oid manbalarda<sup>3</sup> ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- axborot etkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aktsiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;
- noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolga tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;
- iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;
- axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallarning etishmasligi kabi masalalardir.

---


<sup>3</sup> Fayziev SH., Avloqulov A. Audit fanidan ma'ruza matnlari. Toshkent moliya instituti, 2005. y bet 3-4.



Ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshlagan. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishni taqozo etgan. Auditorlar etarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajarganlar. Bundan tashqari, ular korxonaga ma'muriyatiga bo'ysunmaydigan va uning tazyiqlaridan holi faoliyat yuritganlar.

Rivojlangan mamlakatlarda mustaqil auditorlik tashqi moliyaviy nazoratning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi va u keng profilli taftishchilar tomonidan amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarda auditni tashkil qilish bilan bog'liq qoidalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda bir-biriga o'xshashliklar mavjud (1-rasm)



**1-rasm. Turli mamlakatlarda audit o'tkazishning bir-biriga o'xshash tomonlari<sup>4</sup>**

Har bir korxonaga va har bir tadbirkor ular xo'jalik yuritadigan sohada amalga oshiriladigan muomalalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish zarurati bilan to'qnashadilar. Ammo "audit" tushunchasi hali ko'pgina iqtisodiy sub'ektlar uchun to'liq va aniq tasavvurga ega bo'lmagan sohalardan bir bo'lib qolmoqda.

<sup>4</sup>Audit. Darslik. - T.: NORMA. 2008y. 42-bet


Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiy isloholotlarning liberallashtirishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitida, iqtisodiy faoliyatni nazorat qilish shakllarini hamda biznes ko'rsatkichlarini baholash usullari tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kabs etmoqda. Xususan, moliyaviy nazoratning muhim shakllaridan biri hisoblangan mustaqil va muqobil auditorlik nazorati mexanizmini samarali shakllantirish hamda uni bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarurati yanada kuchaymoqda.

Iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish natijasida korxonalar moliyaviy-iqtisodiy faoliyati samarali tashkil etish uchun auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, hamda o'zaro hisob-kitobni yaxshilash maqsadida ularga maslahat, tavsiyalar, moliya, soliqqa tortish, moliyaviy boshqarish va huquq sohasidag hamda boshqa turlardagi malakali yordam ko'rsatadigan auditorlarga ehtiyoj yanada kuchaymoqda.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari ish sifatini yanada oshirish hamda auditor malaka sertifikatiga ega auditorlarni audit tekshiruvlarini xolisona, sifatli va haqqoniy o'tkazilishini ta'minlashni tartibga solish maqsadida bir qancha ilmiy va amaliy choralar ishlab chiqilmoqda.

Respublikamizda auditorlarning qonuniy huquq va majburiyatlarini himoya qiladigan, ular malakasini oshirish bo'yicha doimo tadbirlarni amalga oshiradigan nodavlat notijorat tashkilotlar tashkil etilib, ular bugungi kunda o'z faoliyatini olib bormoqda. Bunday tashkilotlar qatoriga O'zbekiston auditorlar palatasi, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi va O'zbekiston biznes fanlari o'qituvchilari assotsiatsiyasi kiradi.



**2 – rasm. Respublikamizda auditorlik faoliyatining asosiy maqsadi<sup>5</sup>**

Har qanday tushuncha, ayniqsa ilmiy atama o'zining mohiyatini ifodalovchi ta'rifiga ega bo'lishi lozim. Auditorlik faoliyatining ta'rifi o'zining tarixiy taraqqiyot yo'lida turli manbalarda turlicha bayon qilingan. Masalan, professor M. M. To'laxo'jaevaning "O'zbekiston Respublikasida Moliyaviy nazorat tizimi"<sup>6</sup> nomli kitobida auditorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan:

Auditorlik faoliyati – bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir. Auditorlik faoliyati va auditor tushunchalariga ta'rif 2000 yil 26 mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida quyidagicha keltirilgan. Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional


<sup>5</sup> To'laxo'jayeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1998. ga asosan talaba tomonidan tayyorlandi.

<sup>6</sup> To'laxo'jaeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. – T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1998. B. – 12.

xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi<sup>7</sup>.

Auditor – auditorlik tekshiruvlarini malakali bilim va professional qobiliyat asosida o'tqazuvchi auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Auditorlik faoliyatining maqsad va vazifalari tavsifidan kelib chiqib, uni quyidagicha tasniflash mumkin (3-rasm).



**3-rasm. Auditorlik faoliyatining tavsifi<sup>8</sup>**

<sup>7</sup> "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II – chaqiriq, 2 – sessiyasida qabul qilingan. "Xalq so'zi" gazetasi, 2000 yil 22 sentyabr.

<sup>8</sup> Karimov A. va boshq. Audit. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya. 2008y.32-bet

O'zbekistonda davlat hoqimiyati va boshqaruvi organlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish qonun bilan ta'qiqlangan. Shuningdek, O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri – xorijlik hamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasi berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish hisoblanadi. Muvofiq ravishda, yuqorida keltirib o'tilgan auditorlik faoliyatini rivojlantirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali usullarini tadbqiq etish, ularning auditorlik tekshiruvi natijalari uchun javobgarligini va auditorlik tekshiruvlarining ob'ektivligini oshirish, shu asosda tadbirkorlik tizimlari tomonidan ularga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615- sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini kelgusida isloh qilish yo'lida yana bir kuchli turtki bo'lib xizmat qildi. Umumiy xulosa qiladigan bo'lsak, Respublikamizda auditorlik faoliyatini tashkil etishning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amaldagi qonunchilikka asosan atroflicha o'rganish va tahlil etish, muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan samarali taklif va tavsiyalar berish bo'lsa, iqtisodiyotda tutgan o'rni mulkchilik shaklidan qat'iy nazar birinchidan, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ishonchli, xolisona va mustaqil auditorlik tekshiruidan o'tkazilishini ta'minlash, ikkinchidan, amaldagi qonunchilikning takomillashtirilishi auditorlik xizmatining sifatli o'tkazilishini rag'batlantirishdan iboratdir.

## **1.2. Auditorlik faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va uning rivojlanish bosqichlari**

So'nggi yillarda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida audit sohasi moliyaviy bozorning muhim elementlaridan biri sifatida jiddiy ravishda isloh qilinmoqda.


Bizning fikrimizcha, ushbu hodisaga tadbirkorlik tizimlarining faoliyat yuritishi va rivojlanishining ob'ektiv sharoitlarining o'zgarishi, xususan kelgusida global dolzarb vazifalarni echish doirasida integratsiya jarayonlarining faollashuvi, auditorlik faoliyatining dunyoning iqtisodiyoti ko'proq modernizatsiyalashgan mamlakatlari hamda hududiy va xalqaro iqtisodiy birlashmalarni shakllantirishga intilishi, so'nggi yillarda biznes faoliyatini rivojlantirishning intellektual omillarining kuchayishi, zamonaviy informatsion texnologiyalaridan foydalanish va boshqalar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotida bozor munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishining juda qisqa davri ichida audit sohasi mustaqil professional tadbirkorlik faoliyati va milliy iqtisodiyot moliyaviy infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida o'z o'rnini topdi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillikka dastlabki yillari Respublikamizda auditorlik faoliyatida tubdan yangi bo'lgan huquqiy – meyoriy qonunchilik bazasi yaratildi. Ushbu yaratilgan baza mamlakatimizda auditorlik faoliyatini rivojlantirishda muhim bosqichlarini bosib o'tishga asos bo'ldi.

Quyida har bir bosqichni batafsil tavsiflashga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tashkil qilishdagi dastlabki bosqichlaridan birinchisi, uni kelajakda rivojlanishi va istiqbolini yaratish maqsadida 1992 yil 9 dekabrda “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Auditorlik faoliyatini rivojlanishining birinchi bosqichi 1992 yil “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan boshlandi. Mustaqil audit yordamida davlat va xususiy mulk egalarining mulkiy manfaatdorligini himoya qilish Qonunning asosiy maqsadi etib belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi hukmatning yuqori organlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy-normativ qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi va u quyidagicha ko'rinishga ega (4-rasmga qarang). Bunga muvofiq auditorlik faoliyatini tartibga solishda bosh qomusimiz Respublika Konstitutsiyasi va undan so'ng “Auditorlik faoliyati

to'g'risida"gi qonun hamda Oliy majlis palatalarining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlari muhim ahamiyatga kasb etadi.



#### 4 – rasm. Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimi<sup>9</sup>

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishning ikkinchi bosqichi 26 may 2000 yilda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda chop etilishi bo'ldi.

Oldin qabul qilingan qonunning tubdan qayta ishlab chiqilishi, milliy auditorlik faoliyati tizimining respublikadagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning umumiy jarayonidan orqada qolishini tugatish, milliy auditning unga xos bo'lgan funktsiyalarini bosqichma-bosqich, samarali, ratsional

<sup>9</sup> Audit. Darslik. - T.: NORMA. 2008. 25-bet

va muvofaqiyatli bajarish uchun qulayroq sharoitlar yaratilishi zaruriyati bilan belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlangan qonunning yangi tahririda auditor va auditorlik tashkiloti, auditorlik xulosasi va auditorlik hisoboti o'rtasidagi farqlar aniq tartiblashtirildi, auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi tekshiruvlarga ajratildi, auditorlik faoliyatida auditorlik tekshiruvlaridan tashqari aniq belgilangan professional xizmatlar tartibi, huquqlarning kengayishi, auditorlik tekshiruvlaridan o'tuvchi xo'jalik sube'ktlari va auditorlik tashkilotlari majburiyatlari va javobgarliklari, auditorlik tashkilotlari litsenziyasini to'xtatib turish, tugatish va bekor qilish masalalarini yoritilishi, shuningdek auditorlik malaka sertifikatini tugatish va bekor qilish kabi masalalar o'z echimini topdi.

Yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ko'zda tutilgan Auditorlik faoliyatining tartibga solish mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek auditorlik tekshiruvlarining rolini va huquqiy maqomini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22 sentyabr 2000 yilda 365-sonli "Auditorlik faoliyatni takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning axamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi, bunga muvofiq auditorlik faoliyatini litsenziyalash va tartibga solish maxsus organi vakolati Respublika Moliya Vazirligiga birlashtirilgan edi, banklarda auditorlik faoliyati qismi uchun esa – Markaziy Bank maxsus organ etib tayinlangan edi. Shuningdek yuqorida ta'kidlab o'tilgan qaror bilan birgalikda soliq va boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan auditorlik xulosalarini ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma, majburiy auditorlik tekshiruvlari o'tqazilishidan bosh tortgan xo'jalik yurituvchi sube'ktlardan jarimalarni undirish to'g'risidagi Yo'riqnoma va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risidagi Yo'riqnomalar ham tasdiqlangan edi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq auditorlik tekshiruvlari majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda amalga oshiriladi;



Respublikada auditorlik faoliyatini tartibga solishning muhim elementlaridan biri auditorlik faoliyatining milliy standartlari hisoblanadi.

Respublikada AFMSlarini ishlab chiqish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Birinchi AFMS 1999 yil qabul qilingan edi va unda auditorlik tekshiruvlariga asosiy talablar, rejalashtirish, hujjatlashtirish, auditorlik tanlovlari va boshqa masalalarga oydinlik kiritildi. Hozirgi kunda Respublikamizda 21 ta auditorlik faoliyati milliy standartlari qabul qilingan.

Mamlakatimiz audit tizimining kelgusida professional tadbirkorlik tizimi sifatida rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik tizimiga bosqichma bosqich integratsiyalashuviga va chet el kapitalini keng qamrovli jalb qilinishiga, shuningdek turli mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

Muvofiq ravishda, yuqorida keltirib o'tilgan auditorlik faoliyati sohasidagi muammolarni samarali bartaraf etish, mustaqil audit tizimini rivojlantirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali usullarini tadbiq etish, ularning auditorlik tekshiruvi natijalari uchun javobgarligini va auditorlik tekshiruvlarining ob'ektivligini oshirish, shu asosda tadbirkorlik tizimlari tomonidan ularga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615 sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda auditorlik faoliyatini kelajakda rivojlantirish va takomillashtirish hamda uni isloh etish yo'lida uchinchi bosqichining boshlanishi bo'lib xizmat qildi.

Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini kelgusida isloh qilish yo'lida yana bir kuchli turtki bo'lib xizmat qildi.

Yuqorida aytib o'tilgan qarorning muhim omillaridan biri bo'lib auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomning tasdiqlanishi hisoblanadi. Ushbu Nizomda auditorlik tashkilotlarining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, javobgarliklari, auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkil etish, auditorlik tashkilotlariga qo'yilgan litsenziya talablari va shartlari, shuningdek, auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilishining hisobi, hisoboti va nazorati aniq tartibga solingan.

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi Qonunga va yuqorida aytib o'tilgan Nizomga muvofiq auditorlik tashkilotli bu - auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga va o'z nomi bitilgan muhrga, mustaqil balansga, banklarda o'z hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 aprelda PQ-615-sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinguncha, auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo'lishi belgilab qo'yilgan edi (chet el auditorlik tashkilotining - filial yoki sho'ba korxonasini tashkil etilish holatlari bundan mustasno). Bunda: ustav kapitalining ushbu ulushi aynan shu auditorlik tashkilotining auditoriga (auditorlariga) yoki ushbu tashkilotda ishlamaydigan auditorga tegishliligi muhim emas edi, muhimi ta'sischi auditorlik malaka sertifikatini bo'lishi hisobga olingan.

Endi auditorlik tashkiloti ustav kapitalining ushbu ulushi amaldagi auditorlik malaka sertifikatini bo'lgan, shuningdek, ushbu auditorlik tashkilotining auditori (asosiy ish joyidagi yoki o'rindoshlik asosidagi shtatdagi xodimi) bo'lgan ta'sischi (ta'sisчилarga) tegishli bo'lishi lozim. Shunday qilib, auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi ushbu auditorlik tashkilotining bir yoki bir necha shtatdagi auditorlarga tegishli bo'lishi lozim va auditor (auditorlar) faqat bitta auditorlik tashkilotida ta'sischi bo'lishi mumkin.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 apreldagi 2007 yildagi PQ-615 sonli Qarori bilan tasdiqlangan auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomda shuningdek, quyidagilar ko'zda tutilgan:

- auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qo'shimcha talablar va shartlar;

- litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo'pol ravishda buzishga kiradigan qo'shimcha talablar;

- auditor malaka sertifikatining amal qilishini tugatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan bir marta qo'pol ravishda buzishga kiradigan qo'shimcha talablar;

- auditorlik tashkilotlariga qo'yiladigan qo'shimcha litsenziya talablari va shartlari;

Mamlakatimizning bugungi kundagi auditorlik faoliyatida shuni alohida takidlash lozimki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi nizomga muvofiq auditorlik tashkilotlari amaliy rotatsiyaga kirishlari ya'ni ular bitta xo'jalik yurituvchi sub'ektning auditorlik tekshiruvini uch yildan ortiq ketma-ket o'tkazishlari mumkin emas. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun shtatdagi auditorlarni yoki auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma tuzgan auditorlarni jalb qiladilar

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganlik yoki lozim darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi sub'ektga va (yoki) auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga etkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart. Bundan ko'rinadiki auditorlik tashkiloti va auditorlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik

tekshiruvlari o'tkazish davrida moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi sifatli auditorlik tekshirishlarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Yuqoridagi takliflarni umulashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bizning Respublikamizda auditorlik va unga yondosh bo'lgan professional xizmatlarga talab va qiziqishlar oshib boradi, bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasini kelajakda xalqaro auditorlik xizmatlari bozorida milliy auditorlik faoliyatimiz muvofaqqiyatini ishonchliligini ta'minlaydi.

Shunday ekan, auditorlik nazoratini yuqori darajada o'tkazishni ta'minlash har bir malakali auditorning vazifasidir.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Audit mamlakatimizdagi xo'jalik faoliyatini nazorat va iqtisodiy tahlil qilishning nisbatan yangi yo'nalishidir. Agar G'arb mamlakatlarida audit 150 yildan buyon ma'lum bo'lsa, O'zbekistonda esa, mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida shakllana boshladi. Shuning uchun auditorlik faoliyati rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish zarurdir. Ta'kidlash joizki, oldin ham mamlakatimizdagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xo'jalik faoliyatini nazorat va taftish qilish amalga oshirilgan. Ammo, nazorat va taftish bilan audit tushunchalari bir-birlariga yaqin bo'lsa ham, ularni bitta narsa deb tushunish to'g'ri emas.

Auditorlik bizning tushunchamizdagi xo'jalik faoliyatining tahlili, hujjatli to'liq taftish, balans schyotlarini tekshirish yoki aytaylik, sud-buxgalterlik ekspertizasi emasligiga qaramasdan, auditorlar o'z xizmat vazifalarini amalga oshirish chog'ida yuqorida sanab utilgan ishlar tartibi va hisob hamda nazorat-tahliliy amaliyotning boshqa sohalaridan foydalanadilar.

Xulosa qilar ekanmiz, darhaqiqat, Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan qayd etilganidek, "bizni audit tizimining hozirgi ahvoli qoniqtirmaydi, chunki u hali - beri biznes samaradorligini real baholashning zarur vositasiga aylangani

yo‘q. Bu sektor shunchaki rasmiyatchilik uchun ishlamoqda va hozirgi kunga qadar moliya bozorida yetarli ishonch qozona olmayapti”<sup>10</sup>. Auditorlik faoliyatini rivojlantirish esa ko‘p jihatdan nazariy, huquqiy-me‘yoriy, amaliy tashkil etish jihatlarini ilmiy asoslangan holda takomillashtirishga bog‘liq. Bu borada so‘ngi yillarda auditorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o‘tkazganlik yoki lozim darajada o‘tkazmaganlik oqibatida xo‘jalik yurituvchi sub‘ektga va (yoki) auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga etkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart. Bundan ko‘rinadiki auditorlik tashkiloti va auditorlarning xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda auditorlik tekshiruvlari o‘tkazish davrida moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riligi sifatli auditorlik tekshirishlarni amalga oshirish bilan belgilanadi.

Yuqoridagi takliflarni umulashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, bizning Respublikamizda auditorlik va unga yondosh bo‘lgan professional xizmatlarga talab va qiziqishlar oshib bormoqda, bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasini kelajakda xalqaro auditorlik xizmatlari bozorida milliy auditorlik faoliyatimiz muvofaqqiyatini ishonchliligini ta’minlaydi.

---

<sup>10</sup> Karimov I.A. “Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish - farovon hayotimiz garovidir”. T.: "O‘zbekiston". 2010 y. 36-bet

## **2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI VA ICHKI AUDIT NAZORATINI TASHKIL ETISH AMALIYOTI TAHLILI**

### **2.1. Respublikamizda tashqi audit nazoratini tashkil amaliyoti tahlili**


Moliya tizimida islohotlarni chuqurlashtirish va respublikamiz bozor infrastrukturasi takomillashtirish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirayotgan siyosat natijasida auditorlik faoliyatining kompleks qonunchilik-huquqiy asosi barpo etildi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o'tishi kerak bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sirasi belgilangan bo'lib, ular qo'yidagilardan iboratdir:

- aktsiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag'larining xosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar;
- ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar.

Auditorlik faoliyatining amaliyotida ko'p hollarda amaldagi auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lgan bir jismoniy shaxs bir necha auditorlik tashkilotlari ustav kapitalida ma'lum ulushga ega bo'ladi. Bunday holatlar odatda: auditorlik tekshiruvdan o'tadigan shaxslardan, shuningdek har qanday uchinchi shaxslardan mustaqillik printsipining buzilishiga; mulkdorlarning auditorlik tashkiloti moliyaviy natijalaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorligining kamayishiga; mamlakatning ba'zi hududlarida auditorlik xizmati bozorlarida sof raqobatning cheklanishiga yoki ma'lum darajada monopollashuviga (oligopollashuviga), auditorlik tashkiloti boshqaruvi xodimlari faoliyatini

ta'sischilar tomonidan nazoratining sezilarli darajada pasayishiga va boshqalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, auditorlik tashkilotlari ustav kapitalida ta'sischilarning ulushlari va ularning tarkibi bo'yicha quyidagi asosiy xulosaga kelish mumkin: auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida 51 foizi ushbu auditorlik tashkilotining bir yoki bir necha shtatdagi auditorlarga tegishli bo'lishi lozim va auditor (auditorlar) faqat bitta auditorlik tashkilotida ta'sischi bo'lishi mumkin. Yuqorida aytib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ-615 sonli qaroriga muvofiq, auditorlik tashkilotlari quyidagi litsenziya turlaridan birini olishlari shart (5-rasm)



**5–rasm. Auditorlik tekshiruvini analga oshirish uchun litsenziya turlari<sup>11</sup>**

Mos ravishda, 2007 yil 4 apreldan boshlab, auditorlik tashkilotlari ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidan tashqari qonunchilikda belgilangan, barcha tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va faoliyat yuritishi mumkin, quyidagi majburiy shartlarga rioya qilgan holda:

<sup>11</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) –O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti ma'lumotlariga asosan talaba tomonidan tayyorlandi.

a) ustav kapitalining 51 foizdan kam bo'lmagan miqdori mazkur auditorlik tashkilotining bir yoki bir nechta shtatdagi auditorlariga tegishli bo'lishi shart;

b) faqatgina auditor auditorlik tashkilotining rahbari bo'lishi mumkin;

c) auditorlik tashkilotlari o'z faoliyat turlariga qarab tashkil etishlari shart;

Bu o'rinda, xalqaro buxgalter sertifikatini tushunchasiga ta'rif berib o'tish lozim. O'zbekiston Respublikasida auditorlik va buxgalterlik kasbi vakillariga ma'lumki, 2000-yildan boshlab "Sertifikatlangan buxgalter amaliyotchi" (CAP) yoki "Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter" (CIPA) sertifikatlash doirasida professional buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash dasturi ishlab kelmoqda.

Demak, shtatda xalqaro sertifikatga ega bo'lgan auditor bo'lishi lozim deyilgan shartga javob berishda CAP, CIPA va boshqa yuqorida sanab o'tilgan xalqaro sertifikatlari e'tiborga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi hududida auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun litsenziyani quyidagi uchta shartli darajalarga ajratish mumkin.

1) "Birinchi daraja" – barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi litsenziya;

2) "Ikkinchi daraja" – ustav kapitali ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda majburiy auditorlik tekshiruvlarini va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya;

3) "Uchinchi daraja" – faqatgina tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi litsenziya.

Shuni qat'iy ta'kidlab o'tish joizki, amaliyotda shunday xususiyat mavjudki, "birinchi daraja" yoki "ikkinchi daraja"dagi litsenziyani olishga nomzod – auditorlik tashkiloti tashkilot shtatida bittasi yoki ikkitasi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan ma'lum sondagi auditorlarning mavjudligidan tashqari boshqa barcha yuqorida sanab o'tilgan majburiy shartlarning bajarilishini ta'minlasada u auditorlik faoliyatini yurita olmaydi, zero yuqoridagi darajadagi litsenziyalarni olish uchun hali bitta shart bajarilgani yo'q va kamida SAR sertifikatini olishga



shtatdagi auditorni tayyorlashga ko'p vaqt kerak deb hisoblaydilar yoki o'z auditorlik tashkilotlariga ishga olish uchun xalqaro buxgalter sertifikatiga bor auditorni qidira boshlaydilar. Bu o'z navbatida auditorlik tashkiloti tomonidan rejalashtirilgan auditorlik tekshiruvlarining ushlab qolishiga va shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazishga mavjud haqiqiy va potentsial buyurtmachilarni yo'qotishlariga olib keladi.

Auditorlik tashkilotining bunday fikri bir tomondan to'g'riday tuyuladi, ammo agar "ikkinchi daraja" litsenziyasini olishga nomzod auditorlik tashkiloti tashkilot shtatida bitta xalqaro buxgalter sertifikatiga ega (bunda auditorlar soni kamida ikkita bo'lishi lozim) bo'lgan auditor borligi shartidan tashqari barcha yuqorida sanab o'tilgan majburiy shartlarga mos kelsa, litsenziyalovchi organga "uchinchi daraja" litsenziyasini olish uchun hujjatlarni topshirish mumkin. Bundan keyin, auditorlik tashkilotining shtatida kamida to'rtta auditor bittasining xalqaro buxgalter sertifikatiga bo'lsa, tashkilot litsenziyalovchi organga "ikkinchi daraja" litsenziyasini olish uchun tegishli hujjatlarni qaytadan topshirishi mumkin. Holatdan chiqishning bunday yo'li "birinchi daraja" litsenziyasini olishga da'vogar auditorlik tashkilotlariga ham tegishli, ya'ni yuqoridagi barcha majburiy talablarni bajargunga qadar tashkilot tegishli hujjatlarni litsenziyalovchi organga holatdan kelib chiqqan holda yoki "uchinchi daraja" yoki "ikkinchi daraja" litsenziyasini olish uchun taqdim etishi mumkin.

Auditorlik tashkilotlari o'z fuqarolik ma'suliyatlarini sug'urta polisi bo'lsagina, tuzilgan auditorlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi asosida auditorlik faoliyatini olib borishlari mumkin. Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotlari va boshqa moliyaviy ma'lumotlari haqida noto'g'ri xulosaga ega bo'lgan auditorlik xulosasini tuzganligi natijasida zarar ko'rgan auditorlik tekshiruv buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va moliyaviy hisobotlardan boshqa foydalanuvchilari tomonidan qo'yilgan da'volari hisobidan auditorlik tashkilotlari ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishning manbai bo'lib sug'urta polisi sanaladi. Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan va boshqa sabablar ko'ra yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun o'ziga xos kafil bo'la oladigan summadagi sug'urta polisining mavjud bo'lishi, ushbu auditorlik tashkilotiga xo'jalik yurituvchi sub'ektni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish uchun e'lon qilingan tenderda qatnashishida

o'ziga xos ustunlik beradi. Shuning uchun ham, yuqorida keltirib o'tilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, auditorlik faoliyatini amalga oshirishda fuqarolik javobgarligini sug'urta polisi mavjud bo'lmasligi litsenziya talablarini birlamchi qo'pol buzilishi sifatida qabul qilinadi va bu auditorlik tashkiloti litsenziyasining amal qilishini tugatishga asos bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq, bundan buyon (ya'ni ushbu hujjatni qabul qilingan sanadan – 2007 yil 4 apreldan) auditorlik tashkilotlari aynan bir xo'jalik yurituvchi sub'ektni uch yildan ortiq ketma-ket tekshirishlari mumkin emas. Bunda shuningdek auditorlik tashkilotining so'nggi uch yil davomida aynan bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt bilan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuzgan bitimlari, shartnomalari ham ko'zda tutiladi. Masalan, "ABC" auditorlik tashkiloti so'nggi ikki yil davomida "XYZ" xo'jalik yurituvchi sub'ektning 2010-2011 yillardagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan, shuningdek 2011 yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyat auditorlik tekshiruvini 2012 yilning martida tugatdi. Ushbu auditorlik tashkiloti 2012 yil 4 apreldan boshlab, "XYZ" xo'jalik yurituvchi sub'ektining faqatgina bir davrdagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish huquqiga ega, ya'ni 2012 yil uchun.

Muvofiq tarzda, bu auditorlik tashkiloti ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektning 2013 yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini auditini o'tkazishga huquqi yo'q. Bunda, 2013 yil davomida ushbu auditorlik tashkiloti bu xo'jalik yurituvchi sub'ektga "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida ko'zda tutilgan professional xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. Lekin ushbu auditorlik tashkiloti 2015 yildan boshlab yuqorida aytib o'tilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning kelgusidagi uch yildagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish huquqini oladi, ya'ni u 2014-2016 yillardagi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini audit tekshiruvidan o'tkazishi mumkin. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, ushbu me'yor har yillik majburiy auditorlik tekshiruvlariga hamda tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlariga tadbiiq etiladi.

Bundan tashqari, auditorlarning o'z faoliyatlari uchun ma'suliyatlarini oshirish maqsadida, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomda, qoidabuzarlikka yo'l qo'yilgani uchun malaka sertifikati bekor qilingan yoki amal qilishi tugatilgan auditorlar bekor qilingan yoki tugatilgan vaqtdan boshlab uch yil davomida


auditorning malaka sertifikatini takror olish uchun malaka imtihonlari topshirishga qo'yilmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborot haqida noto'g'ri ma'lumot bayon etilgan auditorlik xulosasini tayyorlashi oqibatida ziyon keltirgani uchun auditorlar va auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvini buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar oldidagi javobgarligini oshirishning boshqa chorasi sifatida yuqorida aytib o'tilgan Nizomda shunday me'yor belgilanganki, unga muvofiq qoidabuzarlikka yo'l qo'yilgani uchun auditorlik tashkiloti litsenziyasining amal qilishini tugatish hollarida mazkur auditorlik tashkiloti rahbarining malaka sertifikatining amal qilishi ham litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab tugatiladi. Bundan quyidagi mantiqiy ketma-ketlik: auditorlik hisoboti xo'jalik yurituvchi sub'ektning auditorlik tekshiruvini ishlari natijalariga ko'ra auditor tomonidan tuziladi va imzolanadi, o'z navbatida auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida beriladi va yuqorida aytib o'tilganidek, auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditor (auditorlar) tomonidan ham va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan ham imzolanadi.

O'zbekistonda auditorlik faoliyatiga ta'luqli qonunchilik hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkiloti bilan auditorlarning faoliyati chambarchas bog'langan bo'lib, auditorlik tekshiruvining natijalariga ham auditorlik tashkiloti va uni amalga oshirgan auditorlar teng huquqli javobgardir. Bunga muvofiq tarzda, berilgan auditorlik xulosasining mazmuni va ishonchliligi uchun ikkisi ham teng ravishda ma'suldirlar. Bunda noto'g'ri auditorlik xulosasi tuzilganligi natijasida auditorlik tashkilotining litsenziyasining amal qilishini tugatish haqidagi qaror qabul qilingan hollarda, ushbu qaror qabul qilingan sanasidan boshlab tekshiruvni amalga oshirgan auditorning malaka sertifikatini tugatish tug'risida qaror ham qabul qilinadi. Ta'kidlash lozimki, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasida auditorlik tekshiruvini nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan ular o'rtasida tuzilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-

xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan o'tkazilishi, auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lash esa, auditorlik tekshiruvining belgilagan organ hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birgalikda, aynan bir xil asoslarga ko'ra aynan bir auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatini tekshirishga takror jalb etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Professional auditorlarga umumqabul qilingan xalqaro amaliyot darajasida litsenziya berishga muvofiq ularning bilim darajasida auditorlik malaka sertifikatini berish O'zbekistonda o'tish davri hisoblanadi. Auditorlarda malaka sertifikatini mavjudligi unga auditorlarning malakasini oshirishda muhim rag'batlantiruvchi omil bo'ladigan ma'lum ustunliklarga ega bo'lishga imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida auditorlik malaka sertifikatini faolyati davomida oxirgi muddatini uzaytirish malaka imtixonidan boshlab 5 yil muddatga beriladi.



**6-rasm. Respublikada auditorlik malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihoni bosqichlari<sup>12</sup>**

Auditorlik kasbi xususiyatlari auditorlardan iqtisodiyotda o'z o'rnini topa olish va buxgalteriya hisobi, moliya, soliqqa tortish, huquqshunoslik fanlari nazariyasi va chuqur amaliy bilimlarni, shuningdek o'zining qarorlarini mahorat bilan asoslab berishni talab qiladi. Bu imtihon komissiyasi oldida ularning sertifikat olish

<sup>12</sup> R.Dustmurotov, Sh.N.Fayziyev "Audit" o'quv qo'llanma T.:2007 ga asosan talaba tomonidan tayyorlandi.

zaruriyatini belgilaydi. Auditorlik malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihoni ikki bosqichda o'tqaziladi.

Malaka imtihonining ikkala bosqichini bir kun davomida o'tkazishga ijozat berilmaydi. Testlar, imtihon biletleri savollari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi hamda Respublika buxgalterlar va auditorlar jamoat tashkiloti bilan birgalikda Auditorlarni o'qitish dasturi asosida ishlab chiqilib, ushbu dastur qo'yidagi fanlarni o'z ichiga oladi: moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, moliyaviy menejment va moliyaviy tahlil, audit, soliqqa tortish va korxonalar faoliyatini boshqarish huquqi. Bizning mamlakatimizda kelgusida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish zaruriyati, uning bugungi kunda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli to'g'risidagi ishonchli ma'lumotga bo'lgan jamiyat talabini to'liq hajmda qoniqtirish uchun imkoniyat bermayotgan sifatini oshirishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining yangi yo'nalishlarini audit qilishning hisobdagi zaruriyati hamda moliyaviy hisobotlar ma'lumotlaridan ichki va tashqi foydalanuvchilarning manfaatlariga yanada chuqurroq moslashtirish talabi bilan bog'liq (aktsiyadorlar, investorlar, kreditorlar, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati, davlat boshqaruv organlari va boshqalar).

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, respublikada auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qonuniy-huquqiy baza yaratilgan, uning faol rivojlanishi uchun amaldagi iqtisodiy rag'batlashtirishlar va soliq imtiyozlar va preferentsiyalar yaratilgan, litsenziya berish tizimi sezilarli darajada soddalashtirilgan va erkinlashtirilgan.

Shu paytning o'zida, auditorlik tashkilotlari faoliyatini tashkillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar sekin tadbiriq etilgan va doim ham sifatli bo'lmagan, hali biznesning samaradorligini haqiqiy baholashning amaliy instrumenti bo'la olmagan audit tizimidagi ishlar holatiga o'sgan talablarni qondira olmagan. Eslatib o'tish lozimki, 2016 yil 1 yanvar holatida respublikamizda majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni jami 2678tani tashkil etgan. Ko'p hollarda, audit tekshiruvlari

rasmiy ravishda va past professional darajada o'tkazilganligi tajribada uchraydi. Shu o'rinda shuni tan olish lozimki, audit tizimi hanuzgacha moliya bozorda tegishli va to'liq ishonch qozonmagan.

Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq, auditor faqatgina bitta auditorlik tashkilotida auditorlik faoliyatini yuritishi mumkin. Bu auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditor – jismoniy shaxs faqatgina bitta auditorlik tashkilotida auditor sifatida ishlashi mumkin.

Bundan tashqari, auditorlarning o'z faoliyatlari uchun javobgarlikni oshirish maqsadida Auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi nizomda qo'ydagilar ko'zda tutilgan: auditorlar malaka sertifikati qo'pol xatolarga yo'l qo'yilganda amal qilish muddati to'xtatilishi yoki tugatilishi mumkin, ushbu holatda auditorlik malaka sertifikatini olish uchun qayta imtihon topshirishga sertifikat amal qilish muddati to'xtatilgan yoki tugatilgan vaqtdan boshlab uch yil ichida ruxsat berilmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axborot haqida noto'g'ri ma'lumot bayon etilgan auditorlik xulosasini tayyorlashi oqibatida ziyon keltirgani uchun auditorlar va auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvchi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va boshqa moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar oldidagi javobgarligini oshirishning boshqa chorasi sifatida yuqorida aytib o'tilgan Nizomda shunday me'yor belgilanganki, unga muvofiq qoidabuzarlikka yo'l qo'yilgani uchun auditorlik tashkiloti litsenziyasining amal qilishini tugatish hollarida mazkur auditorlik tashkiloti rahbarining malaka sertifikatining amal qilishi ham litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab tugatiladi. Bunda shuningdek, auditorlik tashkiloti litsenziyasining amal qilishini tugatishga olib kelgan qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan o'sha auditorning malaka sertifikatining amal qilishi ham tugatiladi

O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunida ko'zda tutilganidek, xo'jalik sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini mustaqil

nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tqazish auditorlik tashkilotlari bilan o'zaro shartnomaga asosan olib boriladi, o'tqazilgan auditorlik tekshiruvi xizmat haqini auditorlik tekshiruvini tayinlagan(buyurtma) organ hisobidan to'lab beriladi.

Auditorlik tekshiruvlarini o'tqazishda cheklovlarning kamaytirilishi muhim holatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu o'rinda, shuni ta'kidlash joizki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizom qabul qilingungacha, ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektga auditorlik tekshiruvi o'tkazish davrida "Auditorlik faoliyati to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuning 17-moddasida ko'zda tutilgan professional xizmatlarni ko'rsatish auditorlik tashkilotlariga taqiqlangan edi.

Bunday professional xizmatlarga Qonunning yuqorida aytib o'tilgan moddasiga muvofiq quyidagilar kiradi:

- a) buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- b) moliyaviy hisobotni tuzish;
- v) milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;
- g) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish;
- d) buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;
- e) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish;
- j) auditorlik faoliyatining milliy standartlarida nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarni ham ko'rsatishlari mumkin.

Boshqacha aytganda, agar auditorlik tashkiloti hisobot davri mobaynida xo'ajlik yurituvchi sub'ektga professional xizmatlarning hech bo'lmaganda bittasini ko'rsatgan bo'lsa, unda shu hisobot davri uchun u ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishi mumkin emas edi. Biroq, 2007 yil 4 apreldan boshlab, ya'ni yuqorida aytib o'tilgan Nizomning qabul qilish sanasidan boshlab, auditorlik tekshiruvini olib borish davrida xo'jalik yurituvchi sub'ektga buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash, olib borish hamda moliyaviy hisobotni tayyorlashdan tashqari barcha professional xizmatlarni

ko'rsatgan auditorlik tashkiloti ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektning shu hisobot davri uchun auditorlik tekshiruvdan o'tkazish huquqiga ega edi.

Bizning milliy auditorlik faoliyati hali yosh, lekin bunga qaramasdan milliy iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

## **2.2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida ichki audit nazoratini tashkil etish amaliyoti tahlili**

Hozirgi paytda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ichki audit kabi muhim resursiga etarlicha baho berilmayapti, vaholanki undan to'g'ri foydalanish korxonalar faoliyatini samaradorligini oshiradi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, tashqi audit instituti jiddiy kamchiliklarga olib kelsa, bu hattoki mustahkam o'rinlarni egallab kelayotgan yirik korxonalarni ham bankrotlikka olib kelishi mumkin. Yuqori darajadagi biznesni boshqarish har qanday investorlar va kreditorlar uchun ijobiy xususiyatlardan biri bo'lib, u xo'jalik sub'ektlarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday biznes boshqaruvning ajralmas bo'g'ini sifatida ichki xo'jalik operatsiyalari xisobini nazorat qiluvchi va unga baho beruvchi ichki audit xizmati xususiyatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2006 yil 26 apreldagi PQ-335-son va "Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qarorlariga muvofiq, shuningdek davlat mulkidan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 noyabrdagi 215-son qaroriga asosan "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom" tasdiqlandi. Ushbu nizomning qabul qilinishi O'zbekiston iqtisodiyotida ichki auditorlar institutining shakllanishi jarayonini boshlab berdi. Ushbu me'yoriy hujjatda 2007 yilning 1 yanvaridan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ko'proq bo'lgan xo'jalik sub'ektlarida kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadigan va ularga hisobot beradigan ichki audit xizmatlari tashkil etilishi belgilab berilgan.



Ichki audit xizmati – Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 noyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning nazorat kuzatuv kengashining qarori bilan tashkil etiladigan ichki audit bo'limida, malaka sertifikatiga ega, chuqur iqtisodiy bilimi bor, etarli amaliy tajribaga ega auditorlar tomonidan amalga oshiriladigan xizmatdir.

Ichki auditorlik xizmatini tashkil qilish va uni olib borish jarayonining asosiy xususiyatlaridan biri bu faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash hisoblanadi.

Bugungi kunda, xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini o'rganish va uni baholashga qo'yiladigan asosiy talablar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 12 aprel 2007 yil 1673-son bilan ro'yxatga olingan 12-sonli "Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash" nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti(AFMS)da belgilangan.

Shuni ham qayd etish joizki, mazkur 12-sonli AFMSni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish uchun asos sifatida Auditning Xalqaro Standartlari (AXS), shuningdek rivojlangan davlatlar, shu jumladan MDH davlatlarining ilg'or tajribalari olingan va unda ko'zda tutilgan asosiy talablar va tamoyillar umumqabul qilingan xalqaro amaliyotga muvofiq va respublikamizda auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi.


Umuman buxgalteriya xisobi va ichki audit tizimi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali amalga oshirish, tadbirkorlikni yuritish, amaldagi qonunchilik talablariga rioya etish, mulklarning butligi va uni himoyalashning samarali usullarini ishlab chiqish va joriy etishi, talon-tarojlik va xatoliklarning oldini olish, xisob yozuvlarini himoyalash, ularning to'liqligi va butligini ta'minlash hamda faoliyat bilan bevosita bog'liq moliyaviy hisobotlar va bosha ma'lumotlarni o'z vaqtida tayyorlash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 noyabrdagi 215-sonli qaroriga asosan "Korxonaldagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom"ning tasdiqlanishi ho'jalik sub'ektlarida ichki audit xizmatining asosiy mohiyati yoritilgan bo'lib, unda korxonalarda ichki audit xizmatining vazifalari, funktsiyalari, shuningdek, huquq majburiyatlari aniq aks etirilgan.

Ushbu ichki audit xizmati xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda bajaradigan vazifalarini va funksiyalarini quydagi 7 – rasmda yanada tushunarliroq qilib ochib beramiz.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning samarali faoliyat yuritishi uchun boshqaruvning yo'lga qo'yilgan tizimi zarur, uning muxim elementi esa ichki audit xizmati tomonidan kuzatuv kengashiga doimiy ravishda ishonchli axborotlar etqazish va amaliyot natijalari bo'yicha korxonada faoliyatini takomillashtirish maqsidida o'z takliflarini berishi lozim.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalardan yana biri ichki audit jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan boshqaruv organlariga berilgan tavsiyalarning bajarilishi ustidan nazorat qilishi lozim.



**7-rasm. Respublikamizda ichki audit xizmatining asosiy vazifalari<sup>13</sup>**

Bunday holatda, ishlab chiqilgan tavsiyalar ustidan nazorat qilinmasa, korxonada faoliyatini sustlashishi va ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasining orqaga ketishiga asos bo'livchi oqibatlariga olib kelishi mumkin. Demak, ichki audit tizimi – bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati tomonidan moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish va samarali yuritish, aktivlar va

<sup>13</sup> Z. Mamatov, D. Narbekov "Audit asoslari" o'quv qo'llanma T.: 2007 ma'lumotlariga asosan talaba tomonidan tayyorlandi.

hisob hujjatlarining saqlanishini ta'minlash, xato va firibgarlik holatlarini oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va to'liqligi va o'z vaqtida ishonchli moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida qabul qilingan tashkiliy tadbirlar, usullar va amallar (ichki nazorat vositalari) yig'indisi hisoblanadi. Bunda ichki audit tizimining vazifalarining aniq belgilab olinishi uni o'rganish va baholashda muhim ahamiyatga ega.

Auditorlik faoliyati milliy standartlari ichki auditor ishidan foydalanish mumkinligini ko'zda tutmaydi. Bunday imkoniyat 610-son "Ichki audit ishini ko'rib chiqish" Xalqaro audit standartida aks ettirilgan. Shuningdek ichki audit xizmatining o'ziga xos funksiyalari ham mavjud.

Umuman rahbar xo'jalik yurituvchi sub'ektida samarali ichki audit tizimini tashkil qilish, mazkur korxonada nazorat muhitini yaratish va barcha tegishli shaxslarni xo'jalik yurituvchi sub'ekt oldida turgan mavjud risklar to'g'risida xabardor qilishga mas'ul hisoblanadi.

Ichki audit tizimini tashkil qilish va yuritish xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan amalga oshirilish xamda qonunchilik yoki ta'sis hujjatlariga muvofiq ichki nazoratni yoki uning funksiyasining bir qismini amalga oshiradigan ichki audit bo'limi yoki boshqa xizmat tashkil qilinishi mumkin.

Kuzatuv kengashi korxonada tarkibida IAXni tashkil etish to'g'risidagi qarorini qabul qiladi, uning nizomini, xarajatlari smetasini, joriy yil uchun ish rejasini tasdiqlaydi. Ichki auditorlar bilan mehnat shartnomasini kuzatuv kengashi raisi tuzadi. Ichki auditor, tashqi auditorlar singari, o'z faoliyatini auditorlik faoliyati milliy standartlariga muvofiq amalga oshiradi.

Umuman olganda ichki auditor mulkdorlar vakili bo'lib, buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lishi kerak. U mulkdorlarga korxonadagi haqiqiy ahvol to'g'risida, ijro organlarining qanchalik vakolatli ekanligi haqida axborot beribgina qolmay, balki ijro organiga moliyaviy-xo'jalik faoliyati yuritishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka ham yordam beradi.

Ichki auditor ijro organi (shuningdek uning vakolatxonalarini va filiallari) tomonidan korxonani boshqarish bo'yicha qonunchilikka, ta'sis hujjatlari va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilinishini, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi

va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to'liqligi va ishonchliligini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi ustidan audit va monitoringni amalga oshiradi.

Ichki auditorning huquq va majburiyatlari umuman olganda tashqi auditornikiga o'xshab ketadi. Asosiy farq shundaki, tashqi auditorlar kamdan-kam hollarda har chorakda hisobot tuzadilar, chunki, odatda, ular korxonani bir yilda bir marta tekshiradilar.

Ichki auditor ta'sisчилarning moddiy manfaatlarini himoya qiladi va korxonaning ijrochi organidan mutlaqo mustaqildir, rahbariyat va korxonadagi yuqori mansabdor shaxslar bilan qarindoshlik va xizmat aloqalari bilan bog'lanmagan bo'lishi kerak. U quyidagilarning auditorlik tekshiruvini va monitoringini o'tkazadi:

- tasdiqlangan biznes-rejaning bajarilishini;
- korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya etilishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ahvolini;
- soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;
- moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishda qonunchilikka rioya etilishini;
- aktivlar holatini;
- ichki audit ahvolini.

Ammo, ichki auditor majburiyatlari bu bilan cheklanmaydi. Kuzatuv kengashi korxonadan ixtisosidan kelib chiqib, qonunchilikka muvofiq tekshiruvlar o'tkazishning boshqa yo'nalishlarini ham belgilashi mumkin.

Bugungi kunda Respublikamizda ichki audit xizmati xodimlari faoliyatini sug'urtalash hali u darajada xo'jalik subektlari rahbarlarini tashvishga solyotgani yo'q. Respublikamiz sug'urta bozorida jismoniy shaxslar nomidan auditorning professional qaltisliklarini sug'urtalash bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmaydi. Korxonalarning o'zida ham ichki auditorning qaltisliklarini sug'urtalash amaliyoti hali qo'llanilmayapti. Agar yuqoridagi holatlarga muvofiq, xo'jalik subektlarning kuzatuv kengashi tomonidan ichki auditorlarning professional qaltisliklarini

sug'urtalashga talabini kuchaytirs, albatta ichki auditorlik xizmatining sifati yanada oshadi, chunki ichki audit xizmati xodimlari xo'jalik sube'ktlarida asosiy mas'uliyatli shaxslardan biri hisoblanadi, ularning ayrim qo'pol xotaliklari korxonalar faoliyatiga yuqori qiymatdagi zarar etqazish kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Xo'jalik sube'ktlarining moliya-xo'jalik faoliyatida ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ichki audit xizmati o'z faoliyati davomida xo'jalik sube'ktlarining tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini, korporativ boshqarish printsiplariga rioya qilinishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini, hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini, shuningdek aktivlarning holatini, ichki nazoratning holatini tekshirishlari va ularning monitoringini olib borishlari bilan boshqa xodimlardan ajarlib turadilar. Shuning uchun ularning faoliyati xo'jalik sube'ktlarining boshqa bo'limlari va tashqi hamkorlari(qiziquvchilari) bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Demak bundan ko'rinib turibdiki ichki audit xizmatining yana bir xususiyatlaridan biri tashqi sube'ktlarning imkoniyatlarini ham aniq va to'liq baholashlari lozim.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxonada ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin. Bunga muvofiq o'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuzilishi lozim.

Xo'jalik sube'ktlarning ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etilishi hamda korxonada tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklari ko'rsatib o'tilishi lozim.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi

to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda korxonalar ijro etuvchi organi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, yuqorida ta'kidlangan hisobotlarni umulashtirgan holda ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi. Yig'ma hisobotning tahliliy qismi ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga oladi va aniqlangan natijalar yuzasidan tegishli choralar ishlab chiqilishi kerak.

Hisobot tarkibining yakuniy qismida xo'jalik sube'ktning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek likvidligiga umumiy bahoni hamda aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatining tavsiyalarini shuningdek korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqarishni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin amaldagi qonunchilikga ya'ni Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq 10 kun mobaynida tugallanishi zarur.

Yig'ma hisobotlar bevosita korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'rib chiqish va keyinchalik tasdiqlashi uchun taqdim etilishi kerak. Hisobotlar nusxalari tasdiqlangandan keyin xo'jalik yurituvchi sube'ktning ijro etuvchi organiga taqdim etilishi kerak.

Bunga muvofiq ravishda korxonaning ijro etuvchi organi ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek umuman korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarur darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ichki auditor uchun ish haqi darajasini belgilashda ko'pincha unga bosh buxgalter ish haqidan kamroq maosh belgilanadi. Shuningdek, bu holat bugungi kunda ko'pgina xo'jalik subektlarida ichki audit xizmatining u qadar qoniqarli darajada emasligiga sabab bo'luvchi muammolardan biridir. Sababi, bugungi kunda ko'pgina auditorlik tashkilotlari tashqi audit o'tqazuvchi auditorlarga talab yuqori darajada bo'lganligi uchun ichki audit xizmati xodimlariga nisbatan yuqoriroq oylik maosh taklif qilmoqdalar, aks holda ichki audit xizmati auditorlari va tashqi audit o'tqazuvchi auditorlarga o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun malaka sertifikat talablari bir xildir, vaholanki yuqorida ta'kidlangan ichki audit xizmati xodimlarini qanday mas'uliyatli ishlashlari lozimligini ko'rib o'dik.

Auditorlik faoliyatida iqtisodiy sohada ko'p yillik tajribaga va etarli darajada bilim malakaga ega bo'lgan shaxslar faoliyat ko'rsatadilar. Shunga qaramay, xo'jalik sub'ektlari ichki audit xizmatiga ishga kirgan ichki auditor amalda stajini yo'qotadi. U o'z malakasi va faoliyat turini almashtirmagan bo'lsada, korxonadagi uzoq yillik ish uchun moddiy rag'batlantirish tizimiga qo'shilmaydi. Sababi, auditorning professional etikasi Kodeksiga muvofiq, ichki auditor, masalan, xodimlarning shaxsiy ehtiyojlariga beriladigan foizsiz ssudalar ko'rinishidagi korxonaning moddiy qo'llab-quvvatlash tizimidan foydalana olmaydi.

Xo'sh, bugungi kunda ko'pchilik xo'jalik sub'ektlari rahbarlarini qiziqtirayotgan savollardan biri ichki auditorni qaerdan topish mumkin?

Ommaviy axborot vositalarida ichki auditor bo'sh o'rni haqida e'lon berish amaliyoti doim ham kerakli natijani bermaydi. Buning bir nechta sabablari bor. Qisqa e'lon matnida nomzod uchun kerakli axborotni to'liq joylashtirib bo'lmaydi. Bo'lajak nomzodlarni korxonada faoliyati turi, uning infratuzilmasi, soliq to'lovchi turi, buxgalteriya hisobining ahvoli, buxgalteriya xodimlarining malakasi, nainki ijro organi rahbarining shaxsiy fazilatlari va ta'sisчилarning korporativ boshqaruvni kuchaytirishdan qanchalik manfaatdorligi qiziqtiradi. Bu erda hal qiluvchi omil ish haqi darajasi va ijtimoiy yordam paketidir.

Auditorlarning asosiy qismi respublikamiz auditorlik tashkilotlarida ishlaydi. Auditorlik tashkilotlarining farovonligi shtatdagi xodimlar soni va malaka darajasiga bog'liq. Yaxshi mutaxassis uchun ular har oyda 500 ming so'mdan ortiq maosh berishga ham tayyor.

Ayrim xo'jalik sube'ktlarida IAXga auditorlik tashkilotlari xodimlarini o'rindoshlik asosida jalb qiladilar. Ularning asosiy ish joyi auditorlik tashkilotlari bo'lib qolmoqda. Rasmiy jihatdan bu respublika qonunchiligiga zid emas, chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq, o'rindosh xodim korxonaning xodimi hisoblanadi va uning shtatida hisobda turadi. Mazkur holda bunday mutaxassisning ish jadvalini belgilab olish kerak bo'ladi.

Ish haqi masalasi ayniqsa daromadi past bo'lgan xo'jalik sub'ektlarda dolzarblik kasb etadi. Shu bilan birga, aynan ichki auditor korxonaga ko'rayotgan zararlarning haqiqiy sababini aniqlab va uni tanozzuldan olib chiqish yo'llarini ko'rsatib berishi mumkin.

Boshqacha yo'nalish – xo'jalik sube'ktning o'zi xodimlar tarkibidan ichki auditorlarni tayyorlashi kerak. Bu muayyan mablag' va vaqtni talab qilsa-da, afzalliklarga ham ega, ya'ni korxonadagi mutaxassis uning tarmoq ixtisoslashuvi va faoliyati xususiyatlarini yaxshi biladi. Bundan tashqari, ichki audit xizmatiga o'tish bu mutaxassis uchun xizmat pog'onasidan ko'tarilish hisoblanadi.

Shunday qilib, ichki auditorlar instituti faoliyatini boshqaruvchi huquqiy bazasi yaratildi. Endi ushbu institutning qanday qaror topishi va rivojlanishini vaqt ko'rsatadi. Bunda ichki auditorlar yangi faoliyat sohasida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va muammolarni aniqlash, ularni engishda yordam berish juda muhimdir.

Xo'jalik yurituvchi sube'kt rahbari, buxgalteriya xodimlari, ayniqsa korxonaning bosh buxgalteri ichki auditor vazifalarini chuqur tushunishi kerak. Har ikkala xizmat bir jamoa bo'lib ishlashi va yagona maqsadni ko'zlashi darkor, shuningdek bu maqsad esa xo'jalik sube'ktining buxgalteriya hisobi va hisobotini amaldagi qonunchilik me'yorlariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etishdan iboratdir.



## 2-bob bo'yicha xulosa

Auditorlik dalillarini to'plash ko'p jihatdan muhimlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki muhimlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, auditorlik dalillari shunchalik ko'p to'planadi va auditorlik riski kam bo'lishi mumkin. Auditorlik faoliyati milliy standartlarini auditorlik amaliyotida qo'llanish zarurligi munosabati bilan hozirgi vaqtda auditorlik hisoboti tarkibidagi muhimlik darajasini belgilash muammosi alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki auditorlik hisobotining etarli darajada asoslangan bo'lishi uchun muhimlik tushunchasi buxgalteriya axborotidagi qolgan ma'lumotlar, noaniqliklar yoki faktlarni noto'g'ri talqin etish lozim, ular bir vaqtda sodir bo'ladigan vaziyatda ushbu axborot asosidan qilingan mulohaza o'zgarishi mumkinligi yoki unga noaniq yoki noto'g'ri faktlar ta'sir qilishi ehtimolini keltirib chiqaradi.

Umumiy muhimlikning aniq nisbati (mutanosibli) rasmiy ravishda belgilar qo'yilgan bo'lsa-da, auditorlik tashkiloti ma'muriyatining vakillari bu yo'nalishlarni taxminiy deb hisoblaydilar. Ular auditorga tazyiq o'tkazmasligi, muhimlikning taxminiy mezonlarini belgilash chog'ida ishga xalaqit bermasligi, auditor har gal professional mulohaza yuritish qobiliyatiga tayanishi lozim. Bu muhimlikning maqbul darajasini belgilashda, audit sifatini oshirishda auditorga yordam berish uchun zarur. Iqtisodiy subyektning audit qilinayotgan buxgalteriya hisobotidagi jiddiy xatolar va boshqa g'arazlarning ochilmay qolishi xavfi auditorlik tashkilotlari uchun boshqa xatarlar bilan qo'shilib keladi.

Demak, auditor faqat yuksak professionalizm va axloqiy fazilatlarga ega bo'libgina qolmay, o'z biznesining xususiyatlarini, tadbirkorlik xatarlarini yaxshi bilishi shart, deyish uchun hamma asoslar mavjud. Bunday masalani hal etishda auditorlik dalillar va muhimlik darajasi rolini egallaydi.

### **3-BOB. O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK NAZORATI MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Auditorlik nazorati milliy standartlarini xalqaro audit standartlariga muvofiqlashtirish masalalari**

Auditni xalqaro talablarga muvofiq, o'zgartirish keyingi paytlarda O'zbekiston uchun tobora dolzarb ishga aylanmoqda. Bozor munosabatlarini jadallashtirishda respublikamizning jahon bozoriga yanada chuqurroq kirib borishi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishni, iqtisodiy munosabatlarni yanada kengroq amalga oshirish uchun auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo qilmoqda. Bu borada auditorlik faoliyatining milliy standartlari ishlab chiqilmoqda.

Auditorlik faoliyatining milliy standartlari(AFMS)ga xalqaro standartlar va shuningdek Rossiya federatsiyasi qoidalari asos sifatida olingan edi. Bunda ta'kidlash lozimki, auditorlik faoliyatining milliy standartlari milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

AFMSlari xalqaro amaliyot talablariga javob berishi va huquqiy maqomiga muvofiq, Respublikada auditorlik tekshiruvlarini sifati xalqaro darajada bo'lishi, barcha xususiy mulk egalari bizning korxonalarining moliyaviy hisobotlariga ishonchliligini ta'minlaydi.

AFMSlar loyihalari professional jamoat birlashmasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda qayta ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, shundan so'ng huquqiy ekspertlarga va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat ro'yxatidan o'tqazish uchun yuboriladi.

Hozirgi kunga kelib quyidagi auditning milliy standartlari tasdiqlangan.

**O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining milliy standartlarining umumiy tavsifi<sup>14</sup>**

<b>№</b>	<b>Standartning nomi</b>	<b>Raqami</b>	<b>Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanasi va ro'yxat raqami</b>	<b>Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan sanasi va ro'yxat raqami</b>
1	Auditni rejalashtirish	3-son	14.07.1999y. №54	10.11.1999y. №837
2	Mijoz faoliyati (biznesi) bilan tanishish	4-son	20.07.1999y.№57	03.09.1999y. №810
3	Auditor ishi sifatini nazorat qilish	5-son	04.08.1999y. №62	03.09.1999y. №811
4	Auditorlik tekshiruvini hujjatlashtirish	6-son	04.08.1999y. №61	03.09.1999y. №812
5	Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi	9-son	04.08.1999y. N 63	03.09.1999 y. №813
6	Moliyaviy hisobotda bo'lgan boshqa axborot	10-son	09.09.1999 y. N75	23.09.1999 y. N 822
7	Ma'lumotlarning kompyuter ishlovi (MKI) sharoitida audit	11-son	09.09.1999y. N76	23.09.1999 y. N 823
8	Auditorlik tekshiruvlari jarayonida buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholash	12-son	29.12.2006 №108	12.04.2007y №1673
9	Tahliliy taomillar	13-son	04.08.1999y. №64	03.09.1999 y. N814
10	Auditorlik tanlash	14-son	27.07.1999y. №59	03.09.1999 y. N 815
11	Ekspert xizmatidan foydalanish	16-son	27.07.1999 y.№60	03.09.1999y. N816
12	Moliyaviy hisobotning chalkashliklari aniqlanganida auditorlik tashkilotining ish tutishi	24-son	31.05.2001y. №49	30.06.2001y. №1045
13	Auditorlik tekshiruvini o'tkazishda me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etishni tekshirish	25-son	27.01.2003y №14	28.02.2003y № 1223
14	Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati bilan tanishish	31-son	31.05.2001 N 48	21.06.2001y N1043
15	Auditorlik dalillari	50-son	03.04.2002y №48	18.04.2002y №1128
16	Aloqador shaxslar o'rtasida bitimlar bo'yicha auditorlik dalillarini olish taomillari	55-son	27.01.2003y №15	03.03.2003y №1224
17	Moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar	56-son	09.04.2003y №54	23.04.2003y №1236
18	Boshqa auditor ishi natijalaridan foydalanish	60-son	27.01.2003y №16	20.02.2003y №1221
19	Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi;	70-son	14.02.2001y. N20	10.03.2001 y. N 1016
20	Maxsus savolni tekshirish natijari bo'yicha auditor hisoboti	80-son	27.01.2003y №13	19.02.2003y № 1220
21	Auditorlik tashkilotlarining kasbga doir xizmatlari	90-son	14.02.2001y. N19	10.03.2001y. N1017

Hozirgi kunga qadar respublikamizda auditorlik faoliyatining 21 ta auditorlik faoliyati milliy standartlari(AFMS) ishlab chiqilgan. Ushbu standartlar

<sup>14</sup> Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami. X.Qosimov,L.Yugay, A.Xoshimova, B.Pardaev, B.Abdunazarov.-Toshkent, 2010.-320 b

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan auditorlik faoliyatining milliy standartlari respublikamizda auditorlik faoliyatini yuritishda muhim me'yoriy hujjat hisoblansada, ammo ushbu me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishida talaygina muammolar mavjud. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan va qabul qilinayotgan auditorlik faoliyatining milliy standartlarida uchraydigan eng katta kamchiliklardan biri - bu mazkur standartlar asosan xalqaro standartlardan xuddi nusxa ko'chirgan holatdagidek ishlab chiqilgan. Ma'lumki, respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'lni tanlaganmiz. Shu boisdan barcha faoliyat turlarida qonuniy asoslarni barpo etar ekanmiz, avvalo, mana shu jihatni inobatga olishimiz lozim. Bu boradagi ishlarni yoritib berish maqsadida biz audit ishi sifatini nazorat qilishga bag'ishlangan xalqaro va milliy standartlarning farqlari va o'xshash tomonlarini solishtirib chiqamiz.

“Auditorlik tekshiruvlarida haqiqiy moliyaviy axborotlarni sifatini nazorat qilish” nomli xalqaro standart buxgalterlar xalqaro federatsiyasi doirasida faoliyat yuritayotgan xalqaro auditorlik qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan. U auditorlik standartlari tizimining “Majburiyatlar” bo'limiga 220-raqam bilan kiritilgan. Hozirgi paytda O'zbekistonda “Auditor ishi sifatining nazorati” Moliya Vazirligining 1999 yil 4 avgustdagi 62-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan. Bu standartlarni bilish va ularni qo'llanilishi amaliyotida auditorlar va auditorlik tashkilotlarining malakaviy darajasini ko'rsatadi.

Bugungi kunda iqtisodiy integratsilashuv jarayonida Auditning xalqaro standartlarini – AXS (International Standards of Auditing – ISA) Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasi BXF (International Federation Accountants – IFAC) tarkibidagi Auditorlik Amaliyoti bo'yicha Xalqaro Qo'mitasi – AAXQ (International Auditing Practice Committe) tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu Federatsiyaga dunyodagi 100 dan ortiq mamlakatlarning milliy-buxgalterlik jamoat tashkilotlari a'zo bo'lib kirgan.

Ushbu standartlar xalqaro miqyosda auditorlik faoliyatining sifati va mavqeini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu standartlar va me'yorlar bir qancha sohalar bo'yicha ishlab chiqiladi:

- a) audit bo'yicha xalqaro me'yorlar;
- b) boshqaruv hisobining xalqaro amaliy qoidalari;
- v) jamoat sektori bo'yicha xalqaro me'yorlar.

Ma'lumki Buxgalterlarning Xalqaro Federatsiyasi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish maqsadida buxgaltiriya hisobi va auditni jahon miqyosida muvofiqlashtirishga doir barcha faoliyatini o'zining qo'mitalari orqali tashkil etadi va amalga oshiradi. Ushbu federatsiya qo'mitalarining birlashuvi buxgalterlar va auditorlarni jaxon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi jarayonida xalqaro buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatida sodir bo'layotgan so'nggi yangiliklar hamda o'zgarishlardan xabardor qilib turadi.

Auditorlik ishining rivojlanishi dunyodagi ko'p mamlakatlarda filiallari va vakolatlari bo'lgan yirik xalqaro kompaniyalar va firmalar tuzilishiga olib keldi.

Xalqaro standart tekshiruvda ishtirok etuvchilar auditorlarga (audit uchun asosiy javobgar shaxs) va ularning yordamchilari (auditor bo'lmagan xodimlar)ga bo'linadi. Bunda auditorlik tashkiloti rahbari ham, tekshiruv rahbari ham auditor sifatida ishlashi mumkin. Chunki, 70-xalqaro auditorlik standarti – "Moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi"da auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti nomidan, auditor tomonidan imzolanishi, zarur hollarda ikki imzo bo'lishi lozimligi aytiladi.

Auditorlik faoliyatining milliy standartidagi tekshiruv barcha ishtirokchilarining vazifalari batafsil bayon qilingan. Auditorlik tashkiloti xodimlariga aniq vazifalarning birlashtirib qo'yilishi auditning sifat tizimidagi faoliyatini va uning nazorat tizimini yaxshilashga ko'maklashadi. Xalqaro standartda bunday bo'lim mutlaqo yo'q, chunki ko'p yillik tajribada auditorlik tashkilotida ishni tashkil qilish qoidalari allaqachon shakllangan va xodimlarning vazifalarini birinchi navbatda tashkilotlarning o'zlari mustaqil belgilaydi.

Audit sifatini nazorat qilish tizimiga ta'sir o'tkazuvchi omillar ikkala standartda ham sanab o'tilgan milliy standartni ishlab chiqish paytida xalqaro standart qoidalari keng qo'llanilganini ko'rish mumkin. O'zbekiston yirik tashkilotlaridagi sifatni nazorat qilish tizimi kichik tashkilotlarda mavjud

ishlayotgan tizimdan farq qilishi mumkin. Biroq bu farq nazorat qilish uchun qo'llaniladigan usullarda emas, faqat tizimning tashkiliy tomonida bo'lishi lozim.

Hozirgi vaqtda dunyoda "Katta to'rtlik" deb atalgan yirik kompaniyalar mavjud bo'lib, bular: "Ernest End Yang Interneshnl LTD", KPMG (Klinvel'd Pit Marvik Gerdeler), "Deloyt end tush", "Prays Uoterxauz-Kuperz"lardir. Auditorlik kompaniyalarining xizmati juda yuqori baholanadi. Chunonchi, 2010 yilda dunyodagi yirik auditorlik firmalarining daromadi 6,5 milliard dollarni tashkil etdi. Quyidagi jadvalda jahondagi yirik auditorlik-konsalting tashkilotlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan (2-jadval).

## 2-jadval

### Jahondagi yirik auditorlik-konsalting tashkilotlarining tavsifi, 2014-2015 yillar <sup>15</sup>

Firmalarning Nomi	Yillik daromadi, (mil.AQSh dol)		2015 yilgi o'sish (%)	Ofislari ochilgan mamlakatlar soni
	2014	2015		
1. Price Waterhous Coopers	10655	9475	112.5	142
2.KPMG	7500	6600	13.6	142
3.Ernst and Young	6670	6015	14.2	141
4.Deloitte and Touch	5950	5200	14.4	126
5.BDO Binder	1230	1155	6.5	80
6.Grand Tornton International	1200	1096.8	9.5	81
7.Mores Roshald International	922.0	788.0	17.0	80
8.REM International	871.0	784.0	11.1	75
9.Sammiy International	754.2	672.0	12.2	60
10.Panal Ker Phoster	720.0	649.0	10.9	94

Ushbu jadvalda ko'rinib turibdiki Price Waterhous Coopers(112.5%), Mores Roshald International(17.0%), Deloitte and Touch(14.4%) auditorlik tashkilotlarining 2015-yilgi daromadlari salmoqli darajada o'sgan. Auditorlik

<sup>15</sup> [www.cfoinnovation.com](http://www.cfoinnovation.com) sayti ma'lumotlariga asosan ingliz tilidan talaba tomonidan tarjima qilib olingan.

faoliyati rivojlanishi bilan bog'liq holda auditorlar ko'rsatadigan xizmat turlari ham ko'payib hajmi ortib bormoqda.

Bunga asosan, aksariyat auditorlik tashkilotlari, ayniqsa, yuqorida tahlil qilingan yirik auditorlik tashkilotlar xalqaro standartlardan keng foydalanmokda va tekshirish uchun shartnoma, audit bitimlari tuzishda shu standartga asoslanmoqdalar natijani ko'rib turibsizki ularning faoliyatini jadal rivojlanmoqda.

Amalga oshirilgan tahlil auditorlik faoliyatining milliy va xalqaro auditorlik standartlari orasida "jarlik" yo'qligini ko'rsatadi. Aksincha, ko'p qoidalar juda o'xshashdir. Bu tadqiq etilgan standartlargagina emas, boshqa standartlarga ham taalluqlidir.

Standartlarning bu bo'limida har bir auditorlik tashkilotida mavjud bo'lishi lozim bo'lgan sifatni nazorat qilish tizimining usullari bayon qilingan. Xalqaro standartlarda bu usullar sifatni nazorat qilish siyosatining maqsadi sifatida belgilangan. Bunday tafovut shu bilan izohlanadiki, xalqaro standartga belgilangan maqsadlarning har biriga nisbatan aniq tadbirlar keltirilgan. Shu jihatdan qaraganda xalqaro standartda axborot ko'p bo'lib, hozirgi holatda juda foydalidir.

Shu sababli respublikamizda auditorlik tashkilotlariga sifatni nazorat qilish tizimini barpo etishda xalqaro standartda keltirilgan tadbirlardan keng foydalanish tavsiya qilinadi.

Xalqaro auditorlik standartlarini O'zbekiston Respublikasida qo'llash muammolarini echishda, milliy auditorlik standartlarini ularga mos tatbiq etish va xo'jalik sube'ktlar faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish tartibi, rivojlangan mamlakatlardagi audit tizimining tashkil qilinish darajasiga muhim e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

AQShda sertifikatli buxgalterlar ishlab chiqarish sohasida, moliyaviy direktor, bosh buxgalter va ichki auditor lavozimlarida ishlashi mumkin. Mustaqil buxgalterlarning ko'pchiligi transmilliy auditorlik tashkilotlarida, milliy auditorlik tashkilotlari va individual faoliyat bilan shug'ullanadi.

**AQShda buxgalterlar va auditorlarning sohalar bo'yicha faoliyatini  
amalga oshirishi<sup>16</sup>**

№	Buxgalter va auditorning ish sohasi	AQShda soha Nomi	Buxgalterlar va auditorlar soni, kishi	%
1	Mustaqil buxgalterlar kompaniyalarda hisob, audit va konsultatsiya xizmati ko'rsatadi	Public Accounting	30.000	25
2	Boshqaruv hisobi va ichki audit qilish	Industrial Accounting	720.000	60
3	Davlat va boshqa byudjet tashkilotlarida ishlovchilar	Federal, State Local Government Accounting	144.000	12
4	Ta'lim va buxgalter kasbidagi kadrlarni tayyorlash sohasida ishlovchilar	Accounting Education And Training	36.000	3
	<b>Jami:</b>		<b>1.200.000</b>	<b>100</b>

AQShda buxgalter va auditorlik xizmati yo'nalishlari bo'yicha, kasb malakasi va tasdiqlovchi sertifikat bo'yicha farqlanadi. Ular oliy buxgalterlik malakasini olgandan so'ng mustaqil o'quv-tajriba asosida kasbiy sertifikat olishlari kerak. Bu uchta yo'nalish bo'yicha beriladi.

1. Moliyaviy buxgalter – Certified Public Accounting CPA.
2. Boshqaruv hisobi – Certified Management Accounting CMA.
3. Ichki audit – Certified Internal Auditor CIA.

Respublikamizda audit ishlarini tashkil etishda asosan tashqi audit tomonidan o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari ko'zda tutiladi. Bizningcha, O'zbekistonda ham buxgalter va auditorlarni tayyorlash, kasbi, ish staji, kasbiy malaka sertifikatiga bo'lgan talabni oshirish zarur.

<sup>16</sup> A.Karimov F. Islomov A.Avloqulov "Xalqaro audit tizimi" Toshkent. "IQTISOD MOLIYA" 2007 y 56-bet



Demak, bugungi kunda O'zbekistonda auditorlik tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish va ularni halqaro auditorlik standartlari talablari asosida tashkil etish masalalari ustida keng ishlar olib borish zaruriyati kelib chiqmoqda.

Auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha qaror ichki audit xizmati bilan auditorlik xizmati ko'rsatishga shartnoma tuzgan tegishli bo'linma rahbari tomonidan qabul qilinadi.

Shuningdek, har bir auditorlik xizmati vaqtida:

1. Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq kelishligi.
2. Ishlab chiqarilgan va amaliyotda qo'llanilayotgan auditning umumiy standartlariga asoslanishi.
3. Auditning milliy standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Shuni qayd etish kerakki, auditorlik tashkilotlarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati standartlariga to'la amal qilishni ta'minlash uchun ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun ikkita bo'lim tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Qimmatli qog'ozlar va birja muomalalari bo'yicha audit bo'limi.
2. Kompaniyalarning audit bo'limi.

Bunday bo'limlar o'z-o'zini boshqarishda va nazorat qilishda katta rol o'ynaydi. Bo'limlarga a'zo bo'lish uchun auditorlik tashkilotlariga, albatta, ma'lum talablar qo'yiladi va bunday bo'limga a'zo auditorlik tashkilotlarining mavqei ham oshib boradi. Auditorlik tashkilotlari bo'limlar ichida bir-birini tekshirish huquqiga ega bo'ladi va faqat tekshiruvdan muvaffaqiyatli chiqqan tashkilot bo'lim a'zolarida qolishi mumkin. Bunday tekshiruvlar tashkilotga ham, auditorlarga ham foydali bo'lib, ularga ishonchni oshirib boradi.

Auditorlik standartlari nafaqat dalillar yig'ish, balki, o'sha dalillarni yig'ish paytida auditorlardan talab qilinadigan malaka va axloq qoidalarini, tekshiruv paytida qo'llanilishi mumkin bo'lgan auditorlik protseduralarini (taomillarini), shuningdek ushbu dalillarni to'plashda qo'llaniladigan usullarni ham belgilab beradi. Demak, auditorlik standartlari mijoz korxonada auditorlik tekshiruv o'tkazilish vaqtida butun bir jarayonni boshqarib turishga samarali xizmat ko'rsatadi.

Keyingi vaqtlarda auditorlik faoliyatining xalqaro ko'lamda rang-barang bo'la borishi jarayoni kuzatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, AQShda XX-asrning so'ng o'n yilligida auditorlik xizmatining yangi turi - guvohlik beruvchi audit turi shakllanmoqda<sup>17</sup>. Auditorlik xizmatining ushbu turi, ayniqsa, bank sohasida keng ko'lamda tarqalmoqda. Bank muassasalari mijozga kredit berishda auditorlik kompaniyalarini guvohlik beruvi shaxs tomon sifatida qaramoqda. Bunda auditorlik kompaniyasi bankdan kredit olgan mijozning kredit shartnomasini bajarish holatini kuzatib boradi.

Auditorlik xizmatining ushbu turini tartibga solish uchun AQShda maxsus standartlar ishlab chiqildi. AISRA tomonidan ishlab chiqilgan ushbu standartlar auditning umumqabul qilingan standartlariga mos kelishi lozmm.

Hozircha xalqaro standartlar auditorlik tadbirlarini batafsil bayon qilishi va misollar keltirilishi bilan auditorlik faoliyatining milliy standartlaridan farq qiladi. Shu sababli xalqaro standartlarni o'rganish sifatli o'tkazilgan auditlarning ko'payishiga va jamoatchilik orasida auditor kasbi nufuzining ortishiga ko'maklashadi.

### **3.2. Respublikamizda auditorlik nazoratini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari**

Mamlakatimiz audit tizimining kelgusida professional tadbirkorlik tizimi sifatida rivojlanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jalik tizimiga bosqichma bosqich integratsiyalashuviga va chet el kapitalini keng qamrovli jalb qilinishiga, shuningdek turli mulkchilik va tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishga ko'p jihatdan bog'liq.

Bizning mamlakatimizda kelgusida auditorlik faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish zaruriyati, uning bugungi kunda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy-iqtisodiy ahvoli to'g'risidagi ishonchli ma'lumotga bo'lgan jamiyat talabini to'liq hajmda qoniqtirish uchun imkoniyat bermayotgan sifatini oshirishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining

---

<sup>17</sup> A.Karimov F. Islomov A.Avloqulov Xalqaro audit tizimi.:Toshkent "IQTISOD MOLIYA" 2007 y.56-bet.

yangi yo'nalishlarini audit qilishning hisobdagi zaruriyati hamda moliyaviy hisobotlar ma'lumotlaridan ichki va tashqi foydalanuvchilarning manfaatlariga yanada chuqurroq moslashtirish talabi bilan bog'liq (aktsiyadorlar, investorlar, kreditorlar, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati, davlat boshqaruv organlari va boshqalar).

Audit holatini o'rganish natijalari bo'yicha va shuningdek auditorlik tashkilotlarining litsenziya talablari va shartlarini bajarish uchun javobgarligini kuchaytirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish va auditorlik tashkilotlari faoliyatini boshqarishning samarali usullarini tadbiq etish, auditorlik xizmatlari bozorida insofsiz (noqonuniy) raqobatni tubdan isloh qilish maqsadlarida 2007 yil 4 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-615 - sonli "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish va ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Bulardan kelib chiqqan holda 8 – rasmda keltirilgan chora tadbirlarni amalga oshirish bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining quyidagilarni tasdiqlash to'g'risidagi 2007 yil 7 iyundagi 80-son buyrug'i yangi tahrirda qabul qilindi:

- Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish masalalari bo'yicha arizalarni ko'rib chiqish, qaror qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi Nizom;

- litsenziya shartnomasi shakli;

- Auditor malaka sertifikatini olish va amal qilish muddatini uzaytirish uchun malaka imtihonlarini o'tkazish bo'yicha komissiya to'g'risidagi Nizom.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-615 – sonli qarori talablariga muvofiq, Auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizom talablari va shartlariga to'liq javob beradigan, amaldagi auditorlik tashkilotlari 2008 yil 1 yanvargacha Adliya vazirligidan qayta ro'yxatdan o'tishlari va mos keladigan litsenziya turini olish uchun Moliya vazirligiga hujjatlarni taqdim etishlari kerak edi.

Bir yuz etmishdan ortiq auditorlik tashkilotlari hujjatlarini taqdim etishdi, shulardan 2015 yil 1 iyun holati bo'yicha 114 ta auditorlik tashkilotlari mos

keluvchi turdagi litsenziyani olishga muvaffaq bo'ldi, jumladan: 37 ta auditorlik tashkilotlari – barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun litsenziyaga; 17 ta auditorlik tashkilotlari - ustav kapitali 500 mln. so'mdan ko'proqni tashkil etgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tashabbuskorlik asosida va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga; 60 ta auditorlik tashkilotlari- faqat tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lishdi.

Audit bozorini yuqori malakali auditorlar bilan ta'minlash maqsadida auditor malaka sertifikatini olish uchun malaka imtihonlarini o'tkazishga qo'yilgan talablar kuchaytirildi.

“Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun shtatdagi auditorlarni yoki auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma tuzgan auditorlarni jalb qiladilar. Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq, auditor faqatgina bitta auditorlik tashkilotida auditorlik faoliyatini yuritishi mumkin. Bu auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditor – jismoniy shaxs faqatgina bitta auditorlik tashkilotida auditor sifatida ishlashi mumkin. Shu bilan birgalikda, bitta auditorlik tashkilotining shtatdagi xodimi bo'lgan auditor, auditorlik faoliyatidan tashqari o'z mehnat faoliyatini boshqa har qanday tashkilotda yuritishi mumkin.

Bugungi respublikamiz auditorlik faoliyati qonuchiligiga muvofiq, agar auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lgan auditor – jismoniy shaxs bir auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun u bilan tuzilgan bir martalik fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma asosida jalb etilgan bo'lsa, unda ushbu auditor xuddi shu paytda boshqa auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvida auditor sifatida ishtirok etishi ta'qiqlanadi.

## O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbolini tashkil etish maqsadida amalga oshirilgan chora tadbirlar

“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilib, Oliy Majlis tomonidan 2007 yil 17 sentyabrda qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 17 maydagi 99-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-son “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Moliya vazirligi tomonidan Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar tasdiqlanib, Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 18 iyulda 977-3 – son bilan ro‘yxatga olindi.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga auditorlar va auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlari buyurtmachilari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va boshqa moliyaviy hisobot foydalanuvchilari oldida ularga moliyaviy hisobot va xo‘jalik yurituvchi sub’ektning boshqa moliyaviy ma‘lumotlar to‘g‘risidagi notug‘ri fikr-mulohazaga ega bo‘lgan auditorlik xulosasi tuzgani natijasida etkazilgan zarar uchun javobgarligini oshirish to‘g‘risida o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilib, 2007 yil 14 dekabrda Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi.

Moliya vazirligiga tomonidan Auditorlik tashkilotlari rahbarlarini attestatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 3 sentyabrda 1709 – son bilan ro‘yxatga olindi.

Moliya vazirligi tomonidan “Auditorlik tashkilotlari faoliyati to‘g‘risida ma‘lumotlar” shakli va uni to‘ldirish bo‘yicha qoidalar tasdiqlandi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 29 noyabrda 1744 – son bilan ro‘yxatga olindi.

### 8 – rasm. O'zbekiston respublikasida auditorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbolini tashkil etish maqsadida amalga oshirilgan chora tadbirlar<sup>18</sup>

<sup>18</sup> D.Parpiyeva. “Bozor iqtisodiyotida mulkchilik munosabatlari” 2015. Slaydlar to‘plami

Qonunchilik tomonidan o'rnatilgan talablarning amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun yagona talablar va standartlar asosida auditorlik xizmati ko'rsatilishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida raqobatchilik muhitining rivojlanishiga, xizmatlar sifati va auditga bo'lgan ishonchning oshishiga olib keladi hamda milliy audit tizimini xalqaro darajaga olib chiqilishiga ko'maklashadi. Ma'lumki, Auditorlik tashkilotlari to'g'risidagi Nizomga muvofiq, auditorlik tashkilotining rahbari auditor bo'lishi, ya'ni auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lishi kerak. Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq, auditorlik xulosalari ham auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan tasdiqlanishi shart. Bu esa o'z navbatida auditorlik tashkiloti rahbaridan ma'lum darajadagi bilim saviyasi, professional darajadagi boshqaruvchilik qobiliyati, kasb axloq me'yorlarini bilishini talab etadi. Amaliyotda shunday hodisalar ham uchraydiki, ayrim auditorlik tashkilotlarining rahbarlari auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lsada, unda bilim saviyasi pastligi, rahbarlik hamda jamoatchilik bilan ishlash qobiyaliyati etishmasli, muomala madaniyati pastligi, kasb axloqiy me'yorlar bilan tanish emasligi hollari uchrab turadi. O'z navbatida ushbu negativ holatlar respublikamiz auditorlik bozorida noxush holatlar (oldindan kelishuv asosida yuzaki tekshiruv o'tkazib ijobiy xulosa berish, noqonuniy "mukofotlar" evaziga auditorlik xulosasi berish va sh.k.) paydo bo'lishiga asosiy sabab hisoblanadi.

U birinchi shartnoma bo'yicha auditor sifatida ishlayotgan muddat davomida boshqa auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnoma tuzishga haqqi yo'q. Albatta, birinchi shartnoma bo'yicha auditor sifatidagi ish tugaganidan so'ng va ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan keyin, auditor malaka sertifikatiga ega auditor – jismoniy shaxs boshqa auditorlik tashkiloti bilan fuqarolik-huquqiy xarakterdagi shartnomasini tuzib, u taklif qilgan auditorlik tashkilotida auditor sifatida ishlashi mumkin.

O'z o'rnida, auditorlik tashkilotlari rahbarlarining attestatsiyasi ularning faoliyati samaradorligini va ishchanlik malakasini baholash, professionallik darajasini muntazam oshirib borishni qo'llash, shuningdek "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi qarori, auditorlik faoliyatining milliy standartlari va boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga auditorlik tashkilotlari tomonidan rioya qilinishi bo'yicha javobgarligini oshirish maqsadida o'tkazilishi lozim.

Attestatsiyada auditorlik tashkilotlari rahbarlarining quyidagi o'ziga xos jihatlari o'z tasdig'ini topadi:

- auditorlik tashkiloti rahbarining professional qobiliyatlilik (tegishli faoliyat sohasi bo'yicha maxsus tayyorgarlik, o'zlashtirilgan bilimlar va to'plangan tajribalar darajasi) talablariga mosligi;

- rahbarning ishni sifatli tashkil qilish, shuningdek auditorlik tashkilotini boshqarish qobiliyati mavjudligi;

- rahbarning kasbiy axloq me'yorlariga rioya etishi.

Ma'lumki rivojlangan mamlakatlarda kishilik faoliyatining ko'p sohalari bo'yicha ilg'orlarni aniqlash reyting orqali bajariladi. Faoliyatning ko'pgina sohalarida va ko'pgina mamlakatlarda reyting baholash tashkilot va korxonalarining faoliyatini va imidjini mustaqil baholash instrumenti sanaladi.

Respublika auditorlar jamoat birlashmalarining talabiga ko'ra auditorlik tashkilotlarini majburiy reyting baholash uchun axborot taqdim etishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, respublika auditorlar jamoat birlashmalari tomonidan auditorlik tashkilotlari faoliyati natijalarini reyting baholashlarni tashkil etilishi nazarda tutilgan. Mos ravishda auditorlik tashkilotlarini majburiy reyting baholashni tadbiiq etilishi auditorlik tashkilotlarning o'zlari uchun ham va auditorlik tekshiruvini haqiqiy va potentsial buyurtmachilari uchun ham, shuningdek, moliyaviy hisobotlardan boshqa foydalanuvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Shu sababdan ham, auditorlik tashkilotlari bunday buyon respublika auditorlar jamoat birlashmalariga reyting baholashni tuzish uchun o'z faoliyatlarining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etishlari shart;

Auditorlarni o'qitish va malakasini oshirishni amalga oshirayotgan uquv markazlari ustidan o'qitish jarayonining sifatli tashkil etilishi bo'yicha Moliya vazirligi tomonidan doimiy monitoring o'tkazilishi va monitoring natijalari bo'yicha ushbu uquv markazlari faoliyatini litsenziyalaydigan vakolatli organga tegishli tavsiyalar kiritish kerakligi tavsiya etiladi.

2016 yil 1 yanvar holatida quyidagi nodavlat ta'lim muassasalari auditorlarni tayyorlash va malakasini oshirish kursini o'tkazish bo'yicha litsenziyaga ega: O'zbekiston Auditorlar palatasi, O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston biznes fanlari o'qituvchilari assotsiatsiyasi, Buxgalterlar va auditorlarni o'qitish va qayta tayyorlash o'quv-metodik markazi hamda Buxgalterlarni tayyorlash xalqaro markazi.

Auditorlar tayyorlash uquv kurslarining talab asosida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, auditorlarni o'qitish va malakasini oshirishni amalga oshirayotgan uquv markazlari ustidan o'qitish jarayonining sifatli tashkil etilishi bo'yicha Moliya vazirligi tomonidan doimiy monitoring o'tkazilishi va monitoring natijalari bo'yicha ushbu uquv markazlari faoliyatini litsenziyalaydigan vakolatli organga tegishli tavsiyalar kiritishi maqsadga muvofiqdir.

Auditorlarning respublika jamoat birlashmalarining auditor kasbini rivojlantirishda ham milliy, ham xalqaro professional birlashmalariga auditorlarni a'zolikka faol jalb etish va milliy auditorlik tashkilotlarini xalqaro bozorga integratsiyalashuviga yordam berish orqali ko'maklashuvi masalalarini auditorlik faoliyati qonunchiligi doirasida echish lozim.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Auditorlik faoliyatini takomillashtirishning yana muhim jihatlaridan biri auditorlik tashkilotlari va auditorlar haqidagi ma'lumotlarning operativ informatsion ta'minot bazasiga kiritilmaganligi achinarlidir. Ushbu muammoni hal qilish uchun O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari va auditorlarga bag'ishlangan, xalqaro internet tarmog'ida veb sayt ochishni



maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bu ishni tashkil qilishda O'zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi yoki O'zbekiston Auditorlar Palatasi albatta, etakchi tashkilot bo'lishi (xarajatlarni qoplash tashkilotlarning ularga a'zolik badallari hisobidan bo'lishi) lozim.

Bundan tashqari, barcha rivojlangan davlatlarda auditorlik faoliyati, ularga oid muammolar va ularni hal qilish yo'llari, faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlarining reytingi bayon qilingan maxsus jurnallar mavjud (masalan, Rossiyada "Auditor", "Auditorskie vedomosti", "Buxgalterskiy uchets"; "Accounting cost" va hokazolar). Lekin, mamlakatimizda bironta ham yo'q. Bizda ham ushbu tahririy faoliyatni yuritishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'g'ri, hozirgi kunda ushbu faoliyat to'la-to'kis rivojlangan deb ayta olmaymiz. Ammo, qachon to'liq rivojlanishini kutib turish ham maqsadga muvofiq emas. Bu kabi ommaviy axborot vositalarida, auditor va auditorlik tashkilotlari haqida, ularning xizmat ko'rsatish darajasi reytingi, tashkilotdagi auditorlarning malakasi, ish staji, muammoni hal qilishda ilmiy yondoshuvi va albatta, xizmat haqi to'g'risidagi ma'lumotlar mujassam bo'lsagina, mijozlar o'z biznesini qaysi auditorni yollab yoki auditorlik tashkilotini tekshiruvga jalb qilishida raqobat paydo bo'ladi hamda adolat qaror topadi. Bu o'z navbatida auditorlik faoliyatini rivojlanishida qo'yilgan muhim qadamlardan biri bo'ladi.

Respublikamizdagi auditorlik tashkilotlarining to'plangan tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, u aniq yaqqol ifodalangan milliy xususiyatlarga ega. Shu bilan birga, xorijiy manbalardagi qoidalar O'zbekistonda auditorlik faoliyatining barpo bo'lishi va rivojlantirilishi uchun foydali hamda qiziqarli ekanligini ta'kidlash joizdir.

Iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tez-tez qabul qilinayotgan yangi me'yoriy hujjatlar auditordan uzluksiz ravishda o'z bilimini oshirib borishini taqozo qiladi. Buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar talabi asosida tashkil etilib borilishi, moliya-pul va soliq siyosatining takomillashuvi auditordan kasbiy bilimni doimiy ravishda chuqurlashtirib borishini talab qiladi. Shu bois, biz

bu borada o'z taklifimizni keltiramiz. Bizning hisobimiz bo'yicha bugungi kunda mamlakatimizda auditorlik tashkilotlari tekshirishi lozim bo'lgan banklar va ular filiallarining soni 350dan ortiqdir. Bu kamida 225taga yaqin auditorlarni bank auditini o'tkazish bo'yicha auditorlik tekshiruvida qatnashishini taqozo qiladi.

Demak, bugungi kunda qo'shimcha yana 225dan ortiq auditorlarni bank auditi bo'yicha tayyorlash va ularga litsenziya berish lozimligini ko'rsatmoqda. Auditorlik faoliyati bilan yuridik va jismoniy shaxslar shug'ullanadilar.

O'zbekiston Respublikasida amal qilinayotgan qonun hujjatlariga asosan auditorlik faoliyati bilan asosan yuridik shaxslar, ya'ni auditorlik tashkilotlari shug'ullanadilar. Ushbu tashkilotlar auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish bo'yicha maxsus ruhsatnomaga ega bo'lib o'z faoliyatlarini yuritish bo'yicha mustaqil hisoblanadilar.

20 yil o'tgandan so'ng yakunlar chiqararkanmiz, birinchi navbatda respublikamizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ushbu Qonunning zarurligi va o'tgan yillarda ham, yaqin kelajakda ham uning dolzarb bo'lib qolishiga guvoh bo'lamiz. Bundan tashqari, ushbu Qonun o'rtaga qo'ygan maqsadlarga erishishda professional tashkilotlar qanday rol o'ynashini ko'rish mumkin.

## XULOSA

Dunyoda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda inqirozdan imkon qadar kam zarar ko'rish va uning oldini olish borasida auditorlik faoliyatining rivojlanishi va unga qo'yilgan yangicha talablarni e'tiborga olish zaruriyati vujudga keldi va tabiiyki bu borada mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" 1438-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda "Nobank moliya tashkilotlari, kredit uyushmalari, lizing, sug'urta va auditorlik kompaniyalarining rolini yanada oshirish hamda tarmog'ini rivojlantirish, xalqaro normalar va standartlarga muvofiq ularning barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar turi va ko'lamini kengaytirish, moliya bozori infratuzilmasi institutlarini mustahkamlash" masalasi va moliyaviy hisobotlarga quyiladigan talablar jumlasiga eng avvalo, ular moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tuzilishi belgilandi. Bundan tashqari, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy hisobotlarini audit qilishda va audit natijasi bo'yicha tuziladigan auditorlik hisobotlarini auditning xalqaro standartlari talabi darajasida tashkil qilish masalasi qo'yildi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotini tashqi audit tomonidan tekshirish uchun auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuziladi va shu asosda moliyaviy hisobot shakllaridagi axborotlarni buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlariga mos kelishiga baho beriladi. Tekshirish jarayonida auditor dalillarni yig'adi va bu dalillar asosida auditorlik hisobotini tuzadi, ushbu hisobot natijalari bo'yicha yakuniy fikr, ya'ni mijozning moliyaviy hisoboti ko'rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishi to'g'risida auditorlik xulosasini beradi va shu asosda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini chop etish mumkin bo'ladi. Audit o'tkazilayotgan sub'ektlarning moliyaviy hisobotida axborot riski darajasini kamaytirish uchun faoliyat bayonnomasida ob'ektiv axborot bo'lishi muhimdir.

Auditorlik hisoboti boshqaruv tizimining (tekshirilayotgan sub'ektning boshqaruvini) tuzilishini e'tiborga olib, bunday axborotni auditorning tekshirishi, nazorat qilishi yanada ishonchliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini samarali tashkil etish va ularga professional auditorlik xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi sharoitida, nazorat shakllarini hamda baholash usullari tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kabs etmoqda. Xususan, mustaqil va muqobil auditorlik faoliyati mexanizmini samarali shakllantirish hamda uni bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish zarurati yanada kuchaymoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### 1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017y. -40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013 uil 26 dekabr. 2014 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.
- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: "Adolat", 2008 y.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
4. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
- 1.4. Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son Qaroriga 2- ilova "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida" Nizom.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ- 615-son Qaroriga ilova "Auditorlik tashkilotlari to'g'risida" Nizom
- 1.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi PQ- 615-sonli Qarori – "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2699-sonli Qarori 2016 yil 27 dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2455-sonli Qarori 2015 yil 22 dekabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№2099-sonli Qarori 2013 yil 25 dekabr.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1887-sonli Qarori 2012 yil 25 dekabr.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1675-sonli qarori 2011 yil 30 dekabr.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-№1449-sonli qarori 2010 yil 24 dekabr.
12. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 19 iyuldagi 148-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentyabdagi 414-son qarori
15. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustdagi 69-son [buyrug'iga](#) ilova

## **2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

### **asarlari va ma‘ruzalari**

16. Karimov I.A. I.A. Karimov «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida». T. «O‘zbekiston» 1995 yil 208-bet.
17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari / - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2009. -B. 56
18. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2005.-B. 528.
19. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi.– T.: “O‘zbekiston”, 2015. 71 b.
20. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. 18.01.2014. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
21. I.A. Karimov. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo‘lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. «Qishloq hayoti» gazetasi. 2004 yil., №20 2-b.
22. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayotimiz garovidir. T.: “O‘zbekiston”. 2007y. 36 b.

23. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust
24. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
25. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
26. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
27. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
28. Mirziyoev Sh.M. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi: Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).

### **3.Darslik va o'quv adabiyotlari**

29. Audit. Darslik. - T.: NORMA. 2008y. 42-bet.
30. To'laxo'jayeva M.M. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi. – T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1998. B. – 12.
31. Karimov A. va boshq. Audit. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya. 2008y.32-bet
32. R.Dustmurotov, Sh.N.Fayziyev “Audit” o'quv qo'llanma T.:2007
33. Z. Mamatov, D. Narbekov “Audit asoslari” o'quv qo'llanma T.: 2007
34. A.Karimov F. Islomov A.Avloqulov “Xalqaro audit tizimi”Toshkent. “IQTISOD MOLIYA” 2007 y 56-bet
35. Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami.



36.Fayziev SH., Avloqulov A. Audit fanidan ma’ruza matnlari. Toshkent moliya instituti, 2005. y bet 3-4

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)**

37.D.Parpiyeva. “Bozor iqtisodiyotida auditorlik munosabatlari” 2015. tezislar to’plami

49. Moliyachi ma’lumotnomasi № 4 (40) 2015 yil 9- b.

#### **5. Internet saytlari**

<http://www.soliq.uz> - O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi rasmiy sayti

<http://www.mf.uz> - O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti

<http://www.stat.uz> - O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi rasmiy sayti

<http://www.lex.uz> - O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta’minlash markazi rasmiy sayti.

<http://www.tfi.uz> - Toshkent moliya instituti sayti

[www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) – O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.

[www.cfoinnovation.com](http://www.cfoinnovation.com) sayti